Tokugava shogunati davrida (1603–1868) samuraylar Yaponiyada eng yuqori ijtimoiy sinf sifatida mavjud edi. Ular asosan harbiy xizmat va davlat boshqaruvida ishtirok etishar, o'z navbatida, shogunlarga xizmat qilishar edi. Ular boshqa ijtimoiy sinflardan ma'lum imtiyozlarga ega bo'lib, o'zlarining urf-odatlarini va kodlarini – bushido (samuray axloqiy kodeksi) asosida yashardilar. Biroq, 1868-yildagi Meydzi restavratsiyasi bilan Yaponiya zamonaviy davlatga aylanish yo'lini tanladi va bu jarayonda samuraylarning eski tartibotdagi o'rnini tobora yo'q qila boshladi.

Meydzi davri islohotlari samuraylar sinfini birinchilardan bo'lib nishonga oldi. Birinchi katta zarba samuraylarning merosiy maqomidan voz kechilganida bo'ldi. 1871-yilda hukumat han (feodal mulklar) tizimini tugatdi va o'rniga prefekturalar asosida yangi



2-TOM, 10-SON

ma'muriy bo'linmalar tashkil qildi. Bu o'zgarish natijasida samuraylar o'zlarining eski feodal xo'jayinlariga xizmat qilishdan mahrum bo'ldi. Bundan tashqari, hukumat 1873-yilda majburiy harbiy xizmat joriy etilishi bilan samuraylarning eksklyuziv harbiy roli ham bekor qilindi. Yangi qonun har qanday yapon erkagi harbiy xizmatga chaqirilishi mumkinligini belgiladi, bu esa samuraylarning Yaponiya mudofaasidagi monopoliya mavqeyini tugatdi.

Samuraylar o'z mavqeyini yo'qotishdan norozi bo'lib, bir necha bor isyon ko'tarishga harakat qildilar. Eng mashhur qo'zg'olonlardan biri 1877-yildagi Satsuma qo'zg'oloni bo'ldi. Ushbu qo'zg'olon samuraylarning o'z rahbarlari bo'lmish Saigo Takamori boshchiligida yangi zamonaviy hukumatga qarshi chiqishlari edi. Biroq, zamonaviy qurollangan armiya tomonidan qo'zg'olon bostirildi va bu voqea samuraylar sinfining yakuniy inqirozi bo'lib tarixda qoldi. Satsuma qo'zg'oloni samuraylarning an'anaviy rolidan voz kechib, zamonaviy armiya va davlat tizimiga o'tishining muqarrarligini ko'rsatdi.

Yaponiyaning zamonaviy armiyasini tashkil etish jarayoni milliy mudofaani kuchaytirish va G'arb davlatlari bilan raqobatlashish maqsadida amalga oshirildi. Hukumatning asosiy maqsadi samuraylar sinfiga asoslangan armiya emas, balki butun xalqni himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiya yaratish edi. 1873-yilda joriy etilgan majburiy harbiy xizmat qonuni Yaponiya erkaklariga (20yoshdan oshgan) uch yillik xizmatni majburiy qilib qo'ydi. Bundan tashqari harbiy xizmatdan keyin 4yil davomida zaxiraga olinib, urush holatlarida armiyaga chaqirilishni majburiy qildi. Bu qonun G'arb davlatlarining milliy armiyalaridan ilhomlangan bo'lib, yangi zamonaviy harbiy tizimni joriy qildi. Shuningdek, Yaponiya hukumati o'zining yangi armiyasini modernizatsiya qilish maqsadida G'arb davlatlaridan harbiy maslahatchilarni jalb qildi, ular orasida Germaniya va Fransiya mutaxassisleri yetakchi o'rinda turar edi.

Yangi tashkil etilgan armiya uchun zamonaviy qurollar va texnologiyalar sotib olindi va Yaponiya harbiy sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Armiyaning modernizatsiyasi samuraylarning o'rniga kelgan yangi avlod askarlarni tayyorlash bilan davom etdi. Harbiy texnologiyalar, strategiyalar va ta'lim tizimi G'arbiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalarga asoslangan bo'ldi. Bu islohotlar natijasida Yaponiya armiyasi XIX asr oxiriga kelib kuchli va zamonaviy armiyaga aylana boshladi.

Yangi armiya Yaponiya xalqaro sahnaga chiqishida katta rol o'ynadi. 1894-1895 yillardagi Xitoy-Yaponiya urushi va 1904-1905 yillardagi Rossiya-Yaponiya urushi bu armiya kuchining real namoyishi bo'ldi. Ushbu urushlardagi g'alabalar Yaponiya xalqaro



2-TOM, 10-SON

maydonda qudratli davlat sifatida tanilishiga sabab bo'ldi va uning mintaqaviy yetakchilik pozitsiyalarini mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, samuraylar sinfining inqirozi Yaponiya tarixidagi tub burilish davriga to'g'ri keldi. Yaponiyaning modernizatsiyaga intilishi va zamonaviy davlat qurilishi yo'lida samuraylarning an'anaviy roli bekor qilindi, o'rniga esa milliy armiya tashkil etildi. Bu jarayon Yaponiya jamiyatini zamonaviylashtirish va uni jahon siyosiy sahnasida raqobatbardosh davlatga aylantirishda muhim qadam bo'ldi. Zamonaviy armiya orqali Yaponiya o'z harbiy kuchini mustahkamlab, xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozondi, bu esa uni XIX asr oxirida Osiyoning yetakchi davlatiga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Friday K. F. The Dawn of the Samurai //Japan Emerging. – Routledge, 2018. – C. 178-188.
- Sonoda H. The decline of the Japanese warrior class, 1840-1880 //Nichibunken Japan Review. – 1990. – C. 73-111.
- Howland D. R. Samurai status, class, and bureaucracy: A historiographical essay //The Journal of Asian Studies. – 2001. – T. 60. – №. 2. – C. 353-380.
- Kuehn J. T. A military history of Japan: from the age of the Samurai to the 21st century. – Bloomsbury Publishing USA, 2014.
- Скворцова Е. Л. Япония: кризис культурной идентичности при встрече с западной цивилизацией //Вопросы философии. – 2012. – №. 7. – С. 52-63.
- Макеева А. Ю. Реорганизация японской армии в 50-90-х гг. XIX в //clio-science: Проблемы истории и междисциплинарного синтеза. – 2020. – С. 147-153.



2-TOM, 10-SON

SYNTHESIS OF CORROSION INHIBITOR FOR IN 0.5 M HYDROCHLORIC
ACID MEDIUM

Misirov Z.X

zafarmisirov1986@gmail.com

Termez State University of Engineering and Technology.

Abstract.

In this article, the PKA-1 corrosion inhibitor was synthesized based on polyethylenepolyamine and croton aldehyde, its structure was analyzed in YAMR and PMR devices, and its formula was proposed.


Keywords: polyethylene polyamine, croton aldehyde, hydrochloric acid.

Introduction

Corrosion is the destruction of materials, especially metal and metal-based structures, as a result of chemical reactions or electrochemical processes [1]. In general, there are several types of corrosion, which are characterized by the source of origin and properties [2]. In preventing corrosion, the use of corrosion inhibitors can allow us to use structures for a relatively longer period [3]. Hydrochloric acid is widely used in oil and gas extraction. Therefore, in the oil and gas industry, not only corrosion inhibitors for CO₂ and H₂S environments, but also synthesis of corrosion inhibitors with high inhibition efficiency for HCl environments play an important role [4,5].

Experimental part

A chemical compound with the following formula was synthesized in the presence of polyethylene polyamine and croton aldehyde in the presence of dimethylformamide solvent.



It was obtained by mixing the starting materials in a ratio of 1:1 at a temperature of 50 °C for 2 hours. The process was then cooled to room temperature and left for 24 hours.

Table 2.1



2-TOM, 10-SON

6. Nazirov Sh S, Turaev Kh Kh, Kasimov Sh A, Normurodov B A, Jumaeva Z E, Nomozov A K. *et al.* Spectrophotometric determination of copper(II) ion with 7-bromo-2-nitroso-1-oxinaphthalene-3,6-disulphocid. *Indian J of Chem.* 2024; 63(5): 500-505. <https://doi.org/10.56042/ijc.v63i5.9289>.
7. K. K. Turaev, K.N. Eshankulov, I.A. Umbarov, S.A. Kasimov, A.K. Nomozov, and D.A. Nabiev Studying of Properties of Bitumen Modified based on Secondary Polymer Wastes Containing Zinc. *Inter J. of Engin. Trends and Tech.* 2023, 71 no. 9, 248-255, Crossref, <https://doi.org/10.14445/22315381/IJETT-V71I9P222>
8. A. K. Nomozov, Kh. S. Beknazarov, S. Z. Khodjamkulov, Z. K. Misirov, *Salsola Oppositifolia acid extract as a green corrosion inhibitor for carbon steel.* *Indian J Chem Tech.* 2023, 30, no.6, 872-877. <https://doi.org/10.56042/ijct.v30i6.6553>.
9. M. A. Shaymardanova, Kh. Ch. Mirzakulov, G. Melikulova, S. Z. Khodjamkulov, A. K. Nomozov, and Kh.S. Shaymardanova, Study of process of obtaining monopotassium phosphate based on monosodium phosphate and potassium chloride. *Chemical Problems.* 2023, 3, no. 21, 279-293. <https://doi.org/10.32737/2221-8688-2023-3-279-293>.



2-ТОМ, 10-СОН

**ЖИНОЯТНИНГ САБАБЛАРИНИ ВА УНИНГ СОДИР ЭТИЛИШИГА
ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАРНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

Файзиев Дилшод Наджимович,

"ONE LAW" адвокатлик фирмаси адвокати

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексида

жиноятнинг сабаблари ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш чоралари сингари процессуал категорияларга ҳуқуқий таъриф берилмаган бўлсада, бироқ, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10.09.2021 йилги “Жиноятларнинг сабаблари ва уларнинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни муҳокама қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 565-сонли қарори билан тасдиқланган Низомда мазкур жиноят-процессуал тадбирнинг таърифи келтирилиб, унга кўра, жиноятнинг сабаблари ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш чоралари деганда келгусида жиноят содир этилишининг олдини олишга қаратилган ҳуқуқий, ижтимоий, ташкилий, тарбиявий, тиббий ва бошқа чора-тадбирлар мажмуи тушунилади.¹

Жиноятчиликни олдини олишга бағишланган юридик адабиётларда унинг услублари мавжудлигиги тан олиниб, улар қуйидагиларда намоён бўлади:

- превентив-жазолаш услуб – бунда жиноятни фош этиш ва айбдорларни жазолаш катта превентив аҳамиятга эга бўлиб, жиноий ҳулқ-атворни мўлжаллаган шахслар учун жазонинг муқаррар қўлланилиши ҳақида ўзига хос огоҳлантирув вазифасини бажаради. Жиноятнинг тезкорлик билан тўла фош этилиши, барча айбдорларнинг аниқланиши, жавобгарлик муқаррарлигининг таъминланиши – буларнинг ҳаммаси жиноятчиликни олдини олиш ёрдам беради;

- ижтимоий-иқтисодий услуб – ҳар қандай жиноятчиликнинг ортида турган сабаб ва омиллардан бири бу жамиятдаги ижтимоий тенгсизликнинг мавжудлигидир, шу сабабли ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар жиноятчиликка қарши курашишга қаратилган вазифаларни бажарар экан, ижтимоий ҳодиса сифатида жиноятчиликнинг кўринишлари, алоҳида жиноятларнинг келиб чиқиш сабаблари ва шарт-шароитларини таҳлил қилиб, уларни бартараф қилиш борасида ваколатли давлат ҳокимияти органларига тегишли чоралар кўриш мақсадида таклифлар киритиб боради;

¹ Lex.uz/ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.



2-TOM, 10-SON

- ижтимоий услуб – жиноятчиликни олдини олиш билан боғлиқ фаолият, агар бу жамоатчиликнинг кенг қатламлари, меҳнат ва ўқиш жамоалари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, оммавий ахборот воситалари ва бошқа фаол аъзолар жалб этилсагина, ўзининг самарадорлигини намоён қилади;

- ташкилий-техник услуб – жиноятчиликни олдини олиш уни тажовуз объектини ҳимоялаш ва жиноят содир этилишига тўсиқлар яратиш мақсадида уни турли техник воситалар билан таъминлаш лозим бўлади.

Юқоридаги методлар ўзаро ҳамоҳанг, бир хилда амал қилгандагина жиноятчиликни олдини олиш фаолияти ўзининг ижобий натижаларини бериши мумкин.

Давлат ва жамиятнинг ривожланиш босқичларида юз бераётган турли ижтимоий беқарорлик ҳукм сурган пайтларда жиноятчилик ўз ўзидан “жонланади”, унинг динамикаси янги қирраларини намоён қилади, жиноятчиликнинг миқдорий ва сифат кўрсаткичларида ўсиш кузатилади.

Шу сабабли, жиноятчилик жамиятга хос бўлган ижтимоий ҳодиса бўлиб ҳисобланиб, ундаги беқарорлик ҳолатлари, бошқарувнинг издан чиқиши ҳамда ҳар қандай ўзгаришлар ушбу ҳодисада ўз аксини беради.

Шу боис, давлатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти учун масъул бўлган давлат органлари жиноятчиликни олдини олиш вазифалари ижросини ташкил қилишни ўйланмаган ҳолда, “бир марталик тадбир учун” амалга оширмаслиги керак деб ҳисобланилади.

Бизнингча, айнан жиноят процессида доирасида аниқланган жиноятчилик сабаблари ва уларни бартараф этиш ишлаб чиқилиб, таклиф қилинган чора-тадбирлар тизимлилик хусусиятини ўзида мужассамлаштириб, жиноятларнинг такроран содир этилишига чек қўювчи самарали механизм бўлиб ҳисобланади.

Бу ўринда, тергов органларининг профилактик фаолиятининг ижтимоий аҳамияти тўғрисида алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим бўлади, агарда терговга қадар текширувни амалга оширувчи орган мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи ва суд жиноят-процессуал механизм доирасида жиноят сабаблари ва шароитларини ҳақиқатда аниқлаб, уларни бартараф қилишининг реал механизмларини кўрган бўлса, бундай сабаб ва шароитлар келгусида ўхшаш жиноятларни содир этилишига ҳеч бир тарзда омил бўла олмайди.

Таъкидлаш жоизки, жиноят-процессуал қонунчиликда жиноят иши бўйича суриштирув ҳамда дастлабки терговни олиб борилиши устидан тергов тармоқлари раҳбарларининг идоравий назорат ва раҳбарликни таъминлаш борасида ўзига хос



2-TOM, 10-SON

мавқеига эғалиги мустақамланган бўлсада, тергов амалиётида нафақат жиноят сабаблари ва шарт-шароитларини бартараф қилиш масаласида, балки бажариладиган тергов ҳаракатлари ва амалга ошириладиган бошқа процессуал ҳаракатларни ўз ичига олган кўрсатмаларини суриштирувчи, терговчиларга бериш кўникмалари тобора камайиб кетмоқда.

Тошкент вилояти ички ишлар органлари томонидан тергов қилинган жиноят ишлари ҳужжатлари танлов асосида ўрганиб чиқилганда, уларнинг 60 фоизи ишни тергов қилган терговчи ва иш бўйича тузилган айблов хулосасини тасдиқлаган прокурор томонидан жиноят сабаблари ва унга имкон берган шароитни бартараф этиш ҳақида тақдимномалар киритилган бўлса, қолган 40 фоизи тергов тармоқлари раҳбари томонидан имзоланган ҳолда ваколатли идораларга юборилган.²

Жиноят процессида жиний судлов иш юритувни юритишга масъул бўлган органлар ва уларнинг мансабдор шахслари бу йўналишдаги процессуал вазифа ва мажбуриятларига масъулият билан ёндашганидагина келгусида рецидив жиноят содир қилинмаслиги хусусида гапириш мумкин бўлади.

Жиноятчиликка қарши курашишда унинг сабабларини жиноят процесси доирасида ўрганиш ҳақида фикр юритилар экан, унинг содир этилишига имкон берган субъектив кўринишдаги сабаб ва шароитни аниқлаш назарда тутилиб, бу энг аввало жиноятчининг шахсини тадқиқ қилиш билан боғлиқдир.

Чунки, далилларга асосланган ҳолда айбланувчининг шахсини ўрганиш уни жиний жавобгарликка тортишнинг мақсадга мувофиқлиги, жиний қилмишни тўғри квалификация қилиш, сўроқ қилишнинг тактикасини танлаш, жавобгарликни енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи ҳолатларни аниқлаш, жиний таъқибни тугатиш масаласини кўриб чиқиш, жиноятнинг иштирокчиларини фош қилиш, шахсни қайта тарбиялаш мақсадида жазони тури ва миқдорини белгилаш сингари бир қатор вазифаларни адо этишга таъсир кўрсатади.³

Профессор Горский Г.Ф.нинг фикрича, “жिनий содир қилган шахсининг ахлоқий қиёфаси тўғрисида фикр юритилгандагина жиноятнинг ўзи, мотиви, сабаби ва шароитини тушунтириб бериш мумкин”.⁴

Олимнинг илмий қарашлари, албатта, диққатга сазовордир. Шахс муайян оила, жамоа ва жамиятнинг аъзоси экан улардаги ҳаёт тарзи, одатлар, қарашлар, фикрлар

² Тошкент вилоят ИИБ хузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишлари;

³ Горский Г.Ф. *Выявление и изучение причин преступности в стадии предварительного расследования.* В., Воронеж Университети Нашриёти, 1964 й., 75 бет.

⁴ Горский Г.Ф. *Выявление и изучение причин преступности в стадии предварительного расследования.* В., Воронеж Университети Нашриёти, 1964 й., 75 бет.



2-TOM, 10-SON

шахсининг ички дунёсининг шаклланишига таъсир кўрсатмай қолмайди. Оддий сўз билан айтганда, шахс, камол топган оила, жамоа ва жамиятнинг ижтимоий маҳсулоти бўлиб ҳисобланади.

Шахс вояга етиб, улғайган жамиятда муайян ахлоқ нормалари бўлишига қарамасдан, уларнинг таъсири нима сабабдан жиноят содир этган шахсни тарбиялашда ўз самарасини бермади, айнан қандай субъектив ва объектив сабаблар унда жиноий ҳулқ-атворнинг юзага чиқишига туртки бўлди деган масалани жиноят процессида исботлаш воситалари қўллаган ҳолда ҳал қилиш орқали жиноят сабаби ва унга имкон берган шароитнинг туб илдизига етиб бориш мумкин.

Жамиятда ўрнатилган ахлоқ-одоб нормалари унинг аъзолари учун бир хилда талаб қўйган пайтда жиноий ҳулқ-атвор сари уринишларнинг бўлиши жиноят содир қилган шахсининг онгида жиноятга мойил фикрлар шаклланишига юқори кўрсатилган нормалардан таъсирлироқ криминоген омиллар мавжуд бўлганидан дарак беради.

Чунки, жиноят турли сабаб ва шароитнинг чалкаш, ўзаро боғлиқ алоқалари натижасида келиб чиққан мураккаб ижтимоий ҳодисадир.

Бежизга, Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги “Судлар тўғрисида”ги Қонунининг 23-моддасида қонунни қўлловчи ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун мажбурий тус касб этган тушунтиришларни ўз ичига олган Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг деярли ҳар бир қарорида судларга мунтазам равишда суд амалиётини умумлаштириб бориш ва натижасига кўра жиноят содир этилишига имкон берган сабаб ва шароитларни аниқлаш ва бартараф қилиш тўғрисида мажбурий кўрсатмалар берилган.

Жиноят сабаблари ва унинг содир этилишига имкон берган шароитлар жиноят ишини юритиш чоғида исботлаш предмети бўлиши лозимлиги ҳақида фикр юритилар экан, албатта исботлаш, яъни жиноят-процессуал қонунчиликда назарда тутилганидек, далилларни тўплаш, текшириш ва уларга баҳо бериш орқали амалга оширилар экан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 87-моддасида назарда тутилганидек, далиллар тергов ва суд ҳаракатларини юритиш, хусусан, сўроқ қилиш, юзлаштириш, таниб олиш учун кўрсатиш, кўрсатувни ҳодиса рўй берган жойда текшириш, олиб қўйиш, тинтув, кўздан кечириш, гувоҳлантириш, мурдани эксгумация қилиш, эксперимент ўтказиш, экспертиза тадқиқотларини ўтказиш учун намуналар олиш, экспертиза ва тафтиш тайинлаш, тақдим этилган ашёлар ва ҳужжатларни қабул қилиш, телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш, улар орқали



2-TOM, 10-SON

узатиладиган ахборотни олиш, шунингдек тезкор-қидирув тадбирларини ўтказиш йўли билан тўпланади, деган қонидани таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Терговга қадар текширувни амалга оширишга ваколатли идора мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд ўз фаолиятининг ўзига хос хусусиятларига кўра, жиноятни фош қилиш, содир бўлган жиноий ҳодиса бўйича ҳақиқатни аниқлаш, жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлашга масъул ҳисобланар экан, айнан тергов ва суд ҳаракатлари ўтказишда тўпланган далилларнинг аҳамияти жиноятнинг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва уларнинг бартараф қилишда ўта муҳим саналади.

Бироқ, суд-тергов амалиётида жиноятнинг содир бўлишига сабаб бўлган ҳолатларни аниқлаш ва уларни бартараф қилиш масаласи иккинчи даражалига айланиб қолиб, бу орқали жиноят процессидаги жиноятчиликни олдини олиш вазифасини адо этилишига бир мунча путур етказилаётганлигини инобатга олиб, бу борада қайд қилинган тергов ва суд ҳаракатларини ўтказиш имкониятларидан амалиётчи ходимлар нечоғли самарали фойдаланиши ҳақида фикр юритиш жоиз ҳисобланади.

Танлов тарзида ўрганилган 60 та жиноят иши ҳужжатларини шуни кўрсатмоқда, 42 фоиз терговчи тергов ҳаракатларини ўтказишда жиноят сабаблари ва шароитларини аниқлашга қаратилган саволларни сўроқ қилинувчи олдига қўйган, қолган 58 фоизи эса, сўроқ давомида жиноятни тафсилотлари, яъни жиноят таркибини элементларини аниқлаштирувчи саволларни қўйиш билан чекланган.

Шундай экан, жиноят сабаблари ва шароитларини аниқлаш масаласи тергов ҳаракатлари ўтказилаётганда жиноят процессининг бошқа вазифалари қаторида параллел қўйилмас экан, жиноятчиликни олдини олишнинг жиноят-процессуал механизмидан самарали фойдаланилаёпти дейишга ҳеч қандай асосимиз йўқ.

Профессор Казанджан ўтган асрнинг 70 йилларида бу борадаги ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятини ўрганиб, қуйидаги хулосасини келтирган эди: “Ҳуқуққа хилоф қилмишларнинг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва уларни кейинчалик бартараф этишнинг тўлақонлилигини таъминлаш бўйича терговчиларнинг етарли самарали бўлмаган фаолиятининг яна бир омили сифатида улар томонидан криминоген ҳолатларни аниқлаш бўйича аниқ тергов ҳаракатлари имкониятларидан фойдаланилмаётганлигидир”⁵

⁵ Казанджан М.А. Деятельность следователя по выявлению криминогенных обстоятельств и привлечению общественности к их устранению. Министерство внутренних дел, Научно-исследовательский и редакционно-издательский отдел. Т, 1979., 15-бет.



2-TOM, 10-SON

Албатта, жиноят сабаблари ва шароитларини аниқлашга қаратилган процессул фаолиятда тергов ва суд ҳаракатлари аҳамияти ҳақида фикр юритилар экан, уларнинг орасида сўроқ қилиш процессуал ҳаракатини алоҳида эътироф этиш лозим бўлади.

Чунки, сўроқ қилиш, тан олиб айтиш керакки, далиллар тўплаш бўйича кенг тарқалган ва энг самаралилардан бири бўлиб ҳисобланган тергов ҳаракатидир.

Сўроқ қилиш орқали процессуал ваколатли мансабдор шахс сўроқ қилинувчи билан бевосита мулоқотга киришиб, исботлаш предметини ташкил қилган барча ҳолатларга доир бевосита маълумот олишнинг процессуал имкони бўлиб ҳисобланади.

Сўроқ қилиш давомида жиноят ишини юритишга масъул бўлган шахс жиноят сабаби ва шароитларини аниқлаш вазифалари бошқа мақсадлари қаторига қўйган экан, сўроқ қилинувчидан бу ҳақда тўғридан тўғри маълумот ололмаслиги тайин ҳолатдир. Балки, жиноят тафсилотларини аниқлаштирувчи саволларни қўйиш орқали жиноятни содир этилишига имкон берган сабаб ва шароитга доир бирламчи маълумотлар билан суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд қуролиниб, уларни бартараф этишга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида тақдимнома лойиҳасини шакллантириш бўйича илк тасаввурларга эга бўлади.

Шу боис, сўроқ қилишнинг криминалистик тактикаси бўйича шаклланган илмий асослардан келиб чиқиб, сўроқ қилинувчи билан психологик мулоқотни шакллантириш, унинг қарашлари, рухий ҳолати, ички дунёси тўғрисида бирламчи маълумотларга эга бўлиш, сўроқ қилиш учун қўйиладиган саволлар ва олиниши кутилаётган жавоблардан келиб чиқиб, тайёргарлик кўриш ва бошқа бир қатор муҳим чоралар унинг самарадорлигини таъминловчи омиллар бўлиб ҳисобланади.

Сўроқ қилиш тактикасининг кўрсатилган тавсиялари суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан жиноятни келтириб чиқарган криминоген омилларни аниқлаш масаласида ҳам жуда қўл келади.

Бироқ, мазкур илмий ишни тадқиқот қилиш давомида ўрганилган жиноят ишлари ҳужжатларига кўра, уларнинг 74 фоизи бўйича ўтказилган сўроқ тергов ҳаракатлари давомида жиноят сабаблари ва шароитларини аниқлашга қаратилган саволлар тўғридан-тўғри қўйилмаган, бор-йўғи 5 фоизи бўйича жиноят сабаби ва унга имкон берган шароитни ўрганишга қаратилган махсус тергов ҳаракатлари ўтказилган.⁶

⁶Тошкент вилоят ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишларини танлов асосида ўрганиш маълумотномаси;



2-TOM, 10-SON

Жиноят-процессуал қонунчиликда сўроқ қилинувчи шахснинг процессуал мақомига кўра, сўроқ қилишнинг бир-биридан фарқ қилувчи талаблари тўғрисида ҳам гапириш жоиз ҳисобланади.

Чунки, жиноят сабаблари ва шароитлари тўғрисида маълумотлар тўпланар экан, сўроқ қилиш давомида бундай маълумотларни берган манбанинг процессуал мақоми айрим ҳолларда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади.

Хусусан, жабрланувчи жиноий қилмиш натижасида жабр кўрган, жиноят тафсилотларидан бевосита хабардор бўлган ёки уларга шохид бўлган шахс ҳисобланиб, сўроқ қилиш давомида сўроқ қилувчи томонидан қўйилаётган саволларга унинг сўралган маълумотларни беришга бўлган иштиёқи кўпроқ бўлишни унутмаслик керак.

Жабрланувчи, терговнинг якунидан манфаатдор бўлган шахслардан ҳисобланиб, сўроқ қилинувчи билан мулоқотга киришувчанлиги бошқа процесс иштирокчиларига кўра кўпроқ бўлиши аниқдир.

Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 22-моддасида терговга қадар текширувни амалга оширишга ваколатли орган мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд олдида жиноят юз берганлигини, унинг содир этилишида ким айбдорлигини, шунингдек у билан боғлиқ барча ҳолатларни аниқлаши шартлиги тўғрисида талаб қўйилар экан, жабрланувчининг кўрсатувлари ҳам бошқа далиллар билан текширилиши лозимлиги тўғрисидаги Жиноят-процессуал кодексининг 95-моддасида қўйилган талаб эътибордан четда қолмаслиги керак.

Бу процессуал талаб сўроқ қилинувчидан жиноят сабаблари ва шароитлари тўғрисида маълумот олинаётганда ҳам амал қилиб, бошқа далиллар билан текширилиб, тасдиқланмаган маълумотлар келгусида криминоген омилларни бартараф қилиш бўйича бериладиган тавсияларнинг самарадорлигига таъсир қилмаслиги керак.

Жиноят сабаби ва шароитларини исботлашда сўроқ қилиш тергов ҳаракатининг аҳамияти тўғрисида фикр юритилар экан, айбланувчини сўроқ қилиш давомида олинadиган маълумотлар шу жиноий қилмиш атрофидаги криминоген омиллар тўғрисидаги тўғри ташхис қўйиш учун муҳим эканлигини таъкидлаш лозим бўлади.

Профессор Казанджаннинг таъкидлашича “айбланувчи, унда жиноий ҳулқ-атворнинг шаклланишига туртки бўлган салбий шахсий ҳислатлар таъсиридаги аниқ ҳолатлар тўғрисида олиниши мумкин бўлган ахборот манбаси бўлиб ҳисобланади. Фақат унинг ўзигина, унда юзага келган жиноий қасд, мақсад, жиноят



2-TOM, 10-SON

содир қилишга ундаган ички қарашлари, айнан бир жой ва вақтни жиноят содир этиш учун танлаганлиги, жиноят содир этиш, унинг изларини яшириш усуллари ва иш учун аҳамиятли бўлган ҳолатлар тўғрисида тўла-тўқис маълумот бера олади.”⁷

Шу билан бирга, айбланувчини сўроқ қилиш тергов ҳаракатининг жиноятчиликни олдини олиш билан боғлиқ чора-тадбирлар режасини шакллантиришда аҳамияти тўғрисида гапирар эканмиз, тергов ҳаракати натижасига кўра олинган жиноят сабаблари ва шароити тўғрисидаги маълумотларнинг тўлиқлиги, ишончлиги ҳамда алоқадорлиги кўпгина ҳолларда сўроқ қилишнинг тактик жиҳатдан тўғри танланганлигига боғлиқ бўлади.

Айниқса, айбланувчи шахс билан тўғри психологик муносабатнинг йўлга қўйилганлиги сўроқдан кўзланган мақсаднинг самарадорлиги бўлиши гарови бўлиб ҳисобланади.

Танлов асосида ўрганиб чиқилган жиноят иши ҳужжатларига кўра, уларнинг 26 фоизи бўйича ўтказилган суриштирув ва тергов ҳаракатлари давомида айбланувчи олдига жиноятнинг келиб чиқиш сабаблари ва шароитларини аниқлаштиришга доир саволлар қўйилган.⁸

Суд-тергов амалиётида айнан суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд томонидан мазкур тергов ҳаракатини ўтказишга пухта тайёргарлик кўрмаслик, айбланувчининг психологик хусусиятлари, унинг қарашлари ва фикрлашининг ўзига хос жиҳатлари инобатга олинмаган ҳолда ўтказилган сўроқлар нафақат сўроқ қилинувчидан қизиқиш билдирилган маълумотларни ололмасликка шароит яратиб беради, балки айрим ҳолларда айбланувчи томонидан атайин ҳақиқатга тўғри келмайдиган маълумотларнинг берилишига туртки бўлиб, бу эса ўз навбатида тергов органи ички имкониятларининг ресурсларини айбланувчи томонидан келтирилган важларни текширишга сарфланишига олиб келади.

Айнан шу сабабли тергов ҳаракатлари ўтказилиши натижасига кўра олинган далиллар билан тасдиқланмаган жиноятнинг келиб чиқиши сабаблари ва бунга имкон берган шароитга доир тафсилотларни ўз ичига олган тақдимномаларни тузиш суд-тергов амалиётида тобора кўпаётганлиги сабабли уларнинг сифатига анча путур етказмоқда.

Казанджан М.А. Деятельность следователя по выявлению криминальных обстоятельств и привлечению общественности к их устранению. Министерство внутренних дел, Научно-исследовательский и редакционно-издательский отдел. Т, 1979., 22-бет.

⁸ Тошкент вилоят ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишларини танлов асосида ўрганиш маълумотномаси;



2-TOM, 10-SON

Тадқиқот доирасида ўрганилган жиноят ишларининг 30 фоизигина бўйича жиноят содир этилиши ва унга имкон берган ҳақиқий сабаб ва шароит аниқланган холос.⁹

Шу боис, айнан пухта тайёргарлик кўрилган ҳолда ташкил қилинган айбланувчини сўроқ қилиш тергов ҳаракатини ўтказишда кўйидагиларга эътибор бериш лозим бўлади:

-содир этилган жиноятнинг сабаби ва шароити тўғрисида тўлақонли тасаввурга эга бўлиш учун жиноят содир қилган шахс туғилиб ўсган, меҳнат қилган ҳамда таълим олган муҳитни тадқиқ қилиш лозим бўлади. Муҳитга хос бўлган ҳар қандай маълумот жиноят содир қилган шахсда шаклланган жинойий ҳулқ-атворнинг моҳиятини очиб беради;

-жиноятни олдини олишга ёки жиноят содир этилишига имкон яратиб берган шарт-шароитни бартараф қилишга масъул бўлган мансабдор шахс, ташкилот, корхона ва муассасадаги фаолиятнинг нечоғли тўғри ташкил қилинганлиги, фаолиятдаги хато ва камчиликлар қайта йўл қўйилмаслиги учун таҳлиллот ишларининг тўғри йўлга қўйилганлигини ўрганиш ва зарур чора-тадбирларни белгилаш аҳамияти каттадир. Чунки, қайд қилинган ҳолатларни ўрганиш ва уларга жиддий ёндашиш жиноятнинг содир этилишига олиб келган бевосита сабабни бартараф этибгина қолмасдан, балки шу сабабнинг жиноят содир этилишига туртки бўлган шароитларни белгиланган тартибга мувофиқлаштириш имконини беради.

Сўроқ қилиш тергов ҳаракатини ўтказиш натижасига кўра олинadиган, жиноят сабаблари ва шароитларини бартараф қилиш учун аҳамиятли бўлган маълумотлар тўғрисида мулоҳаза қилинар экан, гувоҳ процессуал мақомида бўлган шахсни сўроқ қилиш аҳамиятини ҳам ёддан чиқармаслик керак бўлади.

Гувоҳ сўроқ қилинар экан, жиноят иши учун аҳамиятли бўлган ҳолатларни исботлаш учун тўпланиши зарур бўлган фактик маълумотларнинг холислиги ва беғаразлиги айнан унинг содир қилинган жиноят ва унинг тафсилотларига нисбатан эгаллаган психологик позициясига боғлиқлиги илмий адабиётларда кўп бора таъкидланиб келинган.

Суд-тергов амалиётида эса учрайдиган хатолардан бири – бу гувоҳни сўроқ қилишда унинг сўроқларига жавобан бераётган маълумотларнинг манбаси сифатида холислигига баҳо беришга етарли ёндашилмаётганлигидир.

⁹Тошкент вилоят ИИБ хузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишларини танлов асосида ўрганиш маълумотномаси;



2-TOM, 10-SON

Хусусан, жиноятга оид тафсилотлар, айниқса унинг содир этилиши сабаби ва бунга имкон берган маълумотлар тўғрисида гувоҳ сўроқ қилинар экан унинг айбланувчи ва жабрланувчи шахс билан муносабати, уларнинг ўзаро алоқадорлиги даражасини ўрганишга қаратилган саволлар берилмаслиги якуний натижага таъсир кўрсатмасдан қолмайди.

Танлов асосида ўрганиб чиқилган жиноят иши ҳужжатларига кўра, уларнинг 74 фоизи бўйича ўтказилган суриштирув ва тергов ҳаракатлари давомида гувоҳ олдиға уларнинг айбланувчи, жабрланувчи билан муносабатларига доир саволлар кўйилмаган.¹⁰

Жиноят сабаблари ва шароитлари аниқлашда ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракати ҳам ўзининг мақсади ва мазмунига кўра бошқа тергов ҳаракатлари ўртасида аҳамияти жиҳатидан ўзига хос ўринга эга дир.

Хусусан, айнан ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракати давомида жиноят содир этилиши биланоқ шу жинойий ҳодисанинг содир этилишига туртки бўлган омиллар тўғрисида ҳолатларни уни ўтказаётган процессуал ваколатли шахс яққол кўриш имкониятига эга бўлади.

Фақат бунинг энг зарурий шarti – бу мазкур тергов ҳаракатининг сифатли, самарали ва юқори профессионал даражада ўтказилганлигидир. Тергов ҳаракати самарадорлигининг инкор қилиб бўлмас шarti эса унинг кечиктириб бўлмас вазиятда дарҳол ўтказилиши, илм-фаннинг сўнгги ютуқлари бўлиб ҳисобланган криминалистика техника воситаларининг қўлланиши аҳволига боғлиқдир.

Хусусан, ўғрилиқ содир бўлган заҳотиёқ ҳодиса содир бўлган жойга чиққан терговчи шу жиноятни содир этилишига имкон берган виктимологик омиллар, мулкни кўриқлаш билан боғлиқ мулкдор томонидан йўл кўйилган ҳаракатсизлик белгилари ва бошқаларни кўриш мумкин.

Бежизга, жиноят-процессуал қонунчилик мазкур тергов ҳаракатини жиноят иши қўзғатилгунга қадар ўтказилиши имкониятини йўл кўйиб бермаган.

Ратинов А.Р.нинг фикрича, “ҳодиса содир бўлган жойдаги вазиятни шу ҳудудда ҳаракат қилиб, текширилаётган ҳодисанинг бевосита иштирокчиларига айланган шахсларнинг моддий психологияси сифатида баҳолаш мумкин.”¹¹

Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш содир бўлган жинойий ҳодиса ва бу билан боғлиқ жиноят содир этилиши учун танланган қулай вақт, жой ва усулларга

¹⁰ Тошкент вилоят ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишлари;

¹¹ Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. М., 1967, 254-бет.



2-TOM, 10-SON

асос бўлган криминоген ҳолатларни фoш қилишнинг самарали воситаси бўлиб ҳисобланади.¹²

Чунки, айрим ҳолларда жиноий ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш натижасига кўра терговга қадар текширувни амалга оширишга ваколатли орган мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи, прокурор ва суд нафақат жиноят сабаби ва унга имкон берган шароитни кўра билади, балки шу жиноий ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш давомида жиноятнинг ижтимоий хавfli жиноят содир этилиши учун тайёргарлик босқичи эканлиги ҳақида мулоҳаза қилишга асос бўлувчи маълумотлар олиш имконини беради.

Жиноят сабаби тўғрисида фактик маълумот олишга имкон берадиган тергов ҳаракатлари орасида тергов эксперименти ўзининг аҳамияти жиҳатидан муҳим процессуал манба бўлиб ҳисобланади.

Чунки, айнан тергов эксперименти ўтказиш орқали терговчида жиноят содир этилишига имкон берган сабаб ва шароитлар тўғрисида тергов тахминларини текшириш, кўздан кечириш, гувоҳлантириш, сўроқлар, таниб олиш учун кўрсатиш ва бошқа тергов ҳаракатларини ўтказиш натижасига кўра олинган ахборотни аниқлаштириш, тўлдириш, шунингдек, янги криминоген омиллар тўғрисида маълумотлар олиш имкони пайдо бўлади.

Профессор Белкин Р.нинг фикрига кўра, тергов экспериментининг жиноятни олдини олишдаги роли шундаки, уни ўтказиш орқали:

а) қандай ҳолатлар жиноят содир этилишини осонлаштиргани ва бунга имконият яратиб берганлиги;

б) шу шароитлар ўхшаш жиноятлар содир этилиши имкониятини йўққа чиқариш учун қандай ташкилий-маъмурий ёки техник тавсифдаги чоралар кўрилиши мумкинлигини ўрганиб, ҳал қилишга кўмак беради.¹³

Экспертиза текшируви ҳам жиноят сабаби ва унга имкон берган шарт-шароит тўғрисида маълумот учун ишончли, илмий асосланган процессуал манба бўлиб ҳисобланади.

Чунки, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 172-моддасига кўра, иш учун аҳамиятли ҳолатлар тўғрисидаги маълумотларни фан, техника, санъат ёки касб соҳаси бўйича билими бўлган шахс ўтказадиган махсус текшириш орқали олиш мумкин бўлганда экспертиза тайинланади. Терговга қадар

¹² Казанджан М.А. Деятельность следователя по выявлению криминогенных обстоятельств и привлечению общественной к их устранению. Министерство внутренних дел, Научно-исследовательский и редакционно-издательский отдел. Т, 1979., 30-бет.

¹³ Белкин Р.С. Эксперимент в следственной, судебной и экспертной практике., М., 1964, 51-бет.



2-TOM, 10-SON

текширувни амалга оширувчи органнинг мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи, прокурор, судья, мутахассислар, холисларнинг бундай билимларга эга бўлиши экспертиза тайинлаш заруратидан озод этмайди.

Шу ўринда, қонунда назарда тутилган иш учун аҳамиятли ҳолатлар тушунчаси мазкур илмий ишда тадқиқ қилинаётган жиноят сабаби ва шароитларини ҳам қамраб олади. Жиноят иши бўйича суриштирув, тергов ва суд муҳокамаси ўтказилар экан шу жиноятнинг келиб чиқиши сабаби ва унга имкон берган шароитларни аҳамиятсиз ҳолатлар деб санаб бўлмайди.

Ўз навбатида, жиноят-процессуал қонунчилик нормаларини таҳлил қилар эканмиз, умуман олганда, жиноятни профилактика қилиш масаласигагина оид бўлган ҳолатларга алоқадор вазифаларни эксперт олдига қўйиш учун терговчи ва суднинг ҳуқуқларини чеклашлар мавжуд эмас, деб айта оламиз.¹⁴

Криминоген омилларни исботлаш воситаси сифатида тергов ҳаракатлари тизимида экспертизанинг муҳимлиги шундаки, иш бўйича объектив ҳақиқатни аниқлаш учун идрок этишнинг илмий методлари қўлланилади.

Албатта, жиноят-процессуал қонунчилик талабига кўра, экспертиза тайинлаш натижасига кўра олинган хулоса терговчи учун бошқа далиллар қаторида устувор аҳамиятга эга эмас. Балки, экспертиза хулосаси ҳам бошқа далиллар қаторида текширилиши ва баҳо берилиши лозим бўлган фактик маълумот ҳисобланади. Бежизга, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 187-моддаси талабига кўра, эксперт хулосаси терговга қадар текширувни амалга оширувчи органнинг мансабдор шахси, суриштирувчи, терговчи ёки суд томонидан жиноят иши ёки терговга қадар текширув материаллари бўйича тўпланган бошқа далиллар билан биргаликда унинг илмий асосланганлиги ва экспертиза ўтказиш учун белгиланган барча процессуал қоидаларга риоя этилганлиги нуктаи назаридан баҳоланиши лозимдир.

Бироқ, Жиноят-процессуал кодекси 184-моддаси иккинчи қисмига кўра, экспертиза хулосасида:

- қўлланилган усуллар кўрсатилган ҳолда эксперт текширувларининг мазмуни ва натижалари;
- эксперт текшируви натижаларининг баҳоланиши, қўйилган саволларга берилган асосли жавоблар сингари талаблар мавжудлиги, табиий равишда унинг

¹⁴ Пинхасов Б.И. *Некоторые вопросы профилактической деятельности судебного эксперта, Научные труды ТашГУ, вып.479, Т., 1975, 28-бет.*



2-TOM, 10-SON

бошқа далиллар каторида устуворлигини белгиламасада, ишончилиги даражасини оширади.

Шу боис, шу модданинг учинчи қисмида хулосада ҳуқуқбузарлик сабаблари ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитлар, шунингдек уларни бартараф этишга доир ташкилий-техникавий тавсиялар кўрсатилган бўлиши мумкин.¹⁵

Танлов асосида ўрганиб чиқилган жиноят иши ҳужжатларига кўра, уларнинг 45 фоизи бўйича ўтказилган суриштирув ва тергов ҳаракатлари давомида турли масалалар бўйича судга оид экспертизалар тайинланган бўлсада, уларнинг атиги 18,5 фоизи бўйича эксперт олдиға жиноят сабаблари ва шароитларини аниқлаб беришға қаратилган саволлар қўйилган.¹⁶

Кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текшириш тергов ҳаракати жиноят содир этилишига имкон берган сабаб ва шарт-шароитлар тўғрисидаги сўроқ қилинувчи шахслар томонидан берилган маълумотларни текшириш имконини бериб, мазкур тергов ҳаракатини ўтказиш натижасига кўра терговчи гумонланувчи, айбланувчи, жабрланувчи ва гувоҳнинг кўрсатувларидаги криминоген ҳолатлар тўғрисидаги маълумотларнинг тўғрилигига ишонч ҳосил қилиш имкониятига амалда эға бўлади.

Кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текширар экан, терговчи жиний ниятнинг рўёбға чиқарилишини, жиноят излари яширилиши ва келиб чиққан оқибатлар оғирлаштирилишини осонлаштирган шароитларни жойига чиққан ҳолда фoш қилади ва аниқлик киритади.

Жиноятнинг сабабларини ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф қилишнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ қилиш натижасига кўра, қуйидаги хулосаларни келтириш мумкин:

- жиноят сабаблари ва унга имкон берган шароитни жиноят процессида аниқлаш учун уларға исботлаш предмети сифатида ёндашиш ҳамда жиноят-процессуал қонунчиликда назарда тутилган исботлаш воситалари, яъни тергов ҳаракатлари амалға ошириш орқали тўпланадиган фактик маълумотлар билан аниқланадиган ишни тўғри ҳал қилиш учун аҳамиятға молик ҳолатлардир;

- Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 87-моддасида назарда тутилган дастлабки тергов ва суд ҳаракатлари натижасига кўра жиноят сабаблари ва унга имкон берган шароитлар тўғрисида ишончли, мақбул ва алоқадор

¹⁵ Lex.uz./ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси

¹⁶ Тошкент вилоят ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармаси томонидан тергов қилинган жиноят ишлари;



2-TOM, 10-SON

фактик маълумотлар олингандагина жиноят содир этилишига туртки бўлган криминоген омиллар тўғри ва тўлақонли аниқланди деб айта оламиз;

-ҳар қандай дастлабки тергов ҳаракатининг самарадорлиги ва натижадорлиги уларни ўтказишнинг жиноят-процессуал қонунчиликда белгиланган тартибига ва криминалистик тактикасига боғлиқ бўлгани боис тергов ҳаракатлари ўтказиш чоғида жиноят сабаблари ва шароитларига доир фактик маълумотларнинг тўлақонлилиги уларни тўплаш, текшириш ва баҳо беришнинг процессуал тартибига риоя қилинганлигига боғлиқдир;

-дастлабки тергов ва суд ҳаракатларини ўтказиш чоғида жиноят-процессуал қонунчиликда назарда тутилган жиноятни фош қилиш, айбдорларга жавобгарликнинг ва жазонинг муқаррарлигини таъминлаш билан параллел равишда жиноят сабаблари ва унинг содир этилишига имкон берган шароитларни аниқлашга қаратилган чоралар кўрилгандагига уларни келгусида манзилли чора-тадбир белгилаш учун хизмат қилади деб айта оламиз.



PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA YUQORI SINF O'QUVCHILARINING NUTQ KO'NIKMALARINI BAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

*Xusanova Xilola Xaqberdiyevna, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil
tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayoni va yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini baholash bo'yicha qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar keng yoritiladi. Ushbu maqolada pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan metodlar, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar hamda ularni baholash uchun yaratilgan tizimli yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola pedagogik eksperiment natijalariga asoslangan holda o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini baholash mezonlari va metodologiyalarini kengroq yoritadi.

Kalit so'zlar: pedagogik tajriba-sinov, nutq ko'nikmalari, baholash metodologiyasi, og'zaki nutq, yuqori sinf o'quvchilari, lingvistik baholash, ta'lim samaradorligi.

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash jarayoni ta'limning sifatini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida og'zaki nutq ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish pedagogik faoliyatning muhim jihatlari sanaladi. Bu jarayon murakkab bo'lib, o'quvchilarning turli darajadagi lingvistik va kommunikativ qobiliyatlarini aniqlashni talab etadi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o'quvchilarning og'zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarini baholash uchun asosiy metodlardan biri hisoblanadi [1].

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarining aniq mezonlarini ishlab chiqishi lozim. Bu mezonlar o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini turli nuqtai nazarlardan tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Ushbu tajriba jarayonida o'quvchilarning muloqotga qobiliyati, ularga berilgan vazifalarni bajarishdagi faolligi va nutqiy aniqligi kabi mezonlar asosida baholanadi [2].

Pedagogik tajriba-sinov ishlari pedagogning o'quvchilarga qo'ygan ta'limiy maqsadlariga erishishning samaradorligini sinovdan o'tkazadi. Bu jarayonda nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan turli metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Masalan, fenomenlarga asoslangan ta'limning turli metodlari o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini faollashtirish uchun sinovdan o'tkaziladi va ularning samaradorligi baholanadi [3].



2-TOM, 10-SON

Og'zaki nutq ko'nikmalarini baholash jarayonida o'qituvchilar bir nechta metodlardan foydalanishlari mumkin. Eng samarali metodlardan biri bu tajriba-sinov davrida o'quvchilarga berilgan turli mashqlar va vazifalar orqali ularning nutqiy faoliyatlarini kuzatishdir. Ushbu mashqlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning nutqiy faoliyatini baholash uchun ularni turli vaziyatlarga jalb qilish, real hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida ularning og'zaki nutq qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishi mumkin [4].

Nutq ko'nikmalarini baholashda aniq mezonlarga ega bo'lgan tizimlar katta ahamiyatga ega. Bunday mezonlar o'quvchilarning nutqidagi ravonlik, to'g'rilik, mazmunning aniqligi va grammatik jihatdan to'g'ri foydalanishni baholash imkonini beradi. Bu mezonlar orqali o'qituvchi o'quvchilarning og'zaki nutq darajasini aniqlaydi va ularning rivojlanish darajasini kuzatib boradi. Shuningdek, nutqning qaysi jihatlari rivojlanishga muhtojligini aniqlashda bu mezonlar muhim ahamiyatga ega [5].

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda interaktiv metodlarning o'rni katta. O'quvchilarga turli guruhli faoliyatlar, rolli o'yinlar va muhokamalarni tashkil etish orqali ularning og'zaki nutq qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish mumkin. Interaktiv metodlar o'quvchilarning nutq faoliyatini faollashtirish, ularni bahs-munozaralarga jalb qilish va fikrlarni erkin ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi [6]. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning real muloqot vaziyatlarida nutq qobiliyatlarini sinab ko'rish va ularni baholash uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish jarayonida diagnostika yondashuvlaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchilarning o'z bilimlarini o'lchash, ularni qanday qilib rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Diagnostika metodlari o'quvchilarning nutq qobiliyatlaridagi muammolarni aniqlash va ularga moslashtirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish uchun xizmat qiladi [7].

Nutq ko'nikmalarini baholashda individual yondashuv muhim rol o'ynaydi. Har bir o'quvchining nutqiy qobiliyatlari o'ziga xos bo'lganligi sababli, o'qituvchi ularning ehtiyojlarini inobatga olishi kerak. Masalan, ba'zi o'quvchilar og'zaki ifoda qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, boshqalari esa grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishga e'tibor qaratadilar. Shuning uchun pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashgan yondashuvlarni qo'llash lozim [8].

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun o'quvchilarni motivatsiya qilish juda muhimdir. Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilarning o'z fikrlarini ochiq aytishlari va muloqot jarayonida faol ishtirok etishlari katta ahamiyatga ega. Shu sababli, o'qituvchilar sinfda qulay va ijobiy psixologik muhit yaratishi kerak, bu esa



2-TOM, 10-SON

o'quvchilarni o'z fikrlarini ochiq ifoda qilishga undaydi va ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi [9].

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini baholashda metodologik yondashuvlar juda muhimdir. Tajriba-sinov ishlari o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ qobiliyatlarini baholashda, shuningdek, ularning rivojlanishini kuzatishda samarali vositadir. O'quvchilarning nutq ko'nikmalarini baholash uchun aniq mezonlar va interaktiv metodlardan foydalanish ularning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish va o'z bilimlarini amalda qo'llashga imkon beradi. Shuningdek, bu jarayonning muvaffaqiyatli o'tishi uchun o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda metodologik yondashuvlarni moslashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith, J. "The Role of Methodology in Oral Skill Assessment." Educational Research Journal, 2020.
2. Harri, P. "Assessment Criteria for Oral Proficiency in High School Students." Pedagogical Studies Review, 2019.
3. Johnson, K. "Experimental Approaches in Oral Skill Development." Language Learning and Education, 2020.
4. Brown, A. "Interactive Methods in Oral Proficiency Assessment." Journal of Educational Innovations, 2019.
5. Lee, C. "Developing Criteria for Assessing Oral Skills in Foreign Languages." Teaching and Assessment Methods, 2020.
6. Davis, M. "Psychological Aspects of Interactive Learning and Oral Competency." Journal of Pedagogical Psychology, 2018.
7. Wilson, R. "Diagnostic Approaches in Language Learning." Journal of Linguistic Education, 2019.
8. Anderson, P. "Tailored Assessment Methods for Individual Learning Needs." Educational Assessment and Innovations, 2021.
9. Lee, T. "Motivating Students for Oral Skill Development." Language Learning Journal, 2020.



2-TOM, 10-SON

The Role of the Translator in Shaping National Identity: A Study of Early 20th Century Translations in Central Asia

Azimova Laylo Faxriddin qizi

Philologist

layloazimova74@gmail.com

Abstract:

This thesis investigates the pivotal role of translators in shaping national identity in Central Asia during the early 20th century. As cultural intermediaries, translators contributed to the emergence of national consciousness by selecting and interpreting foreign literary works that resonated with local values, aspirations, and historical contexts. This study focuses on the impact of translation choices on the construction of national identity, examining key translations, the motivations behind them, and their reception in Central Asian societies. Through a critical analysis of translators' work, the thesis aims to highlight how translation facilitated cultural exchange and influenced the development of a distinct national identity in a time of sociopolitical change.

Introduction

Background

The early 20th century was a period of significant transformation for Central Asia, characterized by colonialism, social upheaval, and the quest for national identity. As the region grappled with the influences of both colonial powers and revolutionary ideas, translation emerged as a critical tool for cultural negotiation and identity formation. Translators played a crucial role in mediating foreign literary works and ideas, thus shaping the intellectual landscape of their societies.

Research Questions

This thesis seeks to answer the following questions:

- How did translators in early 20th century Central Asia contribute to the formation of national identity through their translation choices?
- What literary works were prioritized for translation, and what criteria influenced these decisions?



2-TOM, 10-SON

- How did the reception of translated works reflect and shape the evolving notions of national identity in Central Asian societies?

Objectives

- To analyze the role of translators as cultural intermediaries in Central Asia.
- To examine the translation strategies employed in the context of national identity formation.
- To explore the relationship between translation, literature, and sociopolitical developments in early 20th century Central Asia.

Significance

This research contributes to the understanding of translation studies, particularly in the context of national identity formation. It highlights the significance of translators in shaping cultural narratives and the impact of their choices on the collective identity of societies undergoing transformation.

Literature Review

Translation and National Identity

The connection between translation and national identity has been widely explored in translation studies. Works by scholars such as Lawrence Venuti (1995) emphasize the political implications of translation choices and their role in shaping cultural perceptions. In the context of Central Asia, translators were not only language experts but also cultural agents who influenced public discourse.

Historical Context of Central Asia in the Early 20th Century

$$\text{Bundan } q = k \cdot 3.14 \cdot (t_w - t_a) = 0,19223 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8) = 49,495 \text{ Vt/m} \quad 1.2)$$

$$k = \frac{1}{(1/2\lambda_p) \cdot \ln(D_{op} / D_{ip}) + (1/2\lambda_i) \cdot \ln(D_{oi} / D_{ii}) + 1/(\alpha_i \cdot D_{oi})} \quad 1.3)$$



2-TOM, 10-SON

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2 \cdot 45,4} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,165}{0,150} \right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0,05} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,265}{0,165} \right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0,265} \right) \right)}$$

$$k = \frac{1}{0,011 \cdot 0,095 + 10 \cdot 0,473 + 0,471} = \frac{1}{5,202} = 0,19223 \text{ Vt / m } ^\circ\text{C};$$

II. Issiqlik yo'qotilishini cho'yan quvur uchun ko'rib chiqamiz. Bunda $\varnothing=150$ mm uzunligi $L=10$ m va izolyatsiya qoplamasi qalinligi $\delta=100$ mm

$$Q = b \cdot l \cdot q = 1,2 \cdot 10 \cdot 49,505 = 594,06 \text{ Vt} \quad 1.1)$$

$$\text{Bundan } q = k \cdot 3,14 \cdot (t_w - t_a) = 0,19227 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8) = 49,505 \text{ Vt/m} \quad 1.2)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2\lambda p} \right) \cdot \ln \left(\frac{D_{op}}{D_{ip}} \right) + \left(\frac{1}{2\lambda i} \right) \cdot \ln \left(\frac{D_{oi}}{D_{ii}} \right) + \frac{1}{\alpha_i \cdot D_{oi}} \right)} \quad 1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2 \cdot 56} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,165}{0,150} \right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0,05} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,265}{0,165} \right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0,265} \right) \right)}$$

$$k = \frac{1}{0,0089 \cdot 0,095 + 10 \cdot 0,473 + 0,471} = \frac{1}{5,201} = 0,19227 \text{ Vt / m } ^\circ\text{C};$$

III. Issiqlik yo'qotilishini endi polietilen (polipropilen) quvurlar uchun ham ko'rib chiqamiz. Bunda $\varnothing=150$ mm uzunligi $L=10$ m va izolyatsiya qoplamasi qalinligi $\delta=100$ mm

$$Q = b \cdot l \cdot q = 1,2 \cdot 10 \cdot 47,376 = 568,51 \text{ Vt} \quad 1.1)$$

$$\text{Bundan } q = k \cdot 3,14 \cdot (t_w - t_a) = 0,187 \cdot 3,14 \cdot (90 - 8) = 47,376 \text{ Vt/m} \quad 1.2)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2\lambda p} \right) \cdot \ln \left(\frac{D_{op}}{D_{ip}} \right) + \left(\frac{1}{2\lambda i} \right) \cdot \ln \left(\frac{D_{oi}}{D_{ii}} \right) + \frac{1}{\alpha_i \cdot D_{oi}} \right)} \quad 1.3)$$

$$k = \frac{1}{\left(\left(\frac{1}{2 \cdot 0,35} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,165}{0,150} \right) + \left(\frac{1}{2 \cdot 0,05} \right) \cdot \ln \left(\frac{0,265}{0,165} \right) + \left(\frac{1}{8 \cdot 0,265} \right) \right)}$$

$$k = \frac{1}{1,428 \cdot 0,095 + 10 \cdot 0,473 + 0,471} = \frac{1}{5,336} = 0,187 \text{ Vt / m } ^\circ\text{C};$$

Xulosa qilib aytqanda, quvurlardagi issiqlik yo'qolishi quvur material turiga, izolyatsiya qoplamasi qalinligi va material turiga hamda atrof-muhit haroratiga bog'liq. Natijamizga ko'ra po'lat quvur $Q=593,94$ Vt, cho'yan quvur $Q=594,06$ Vt, hamda polietilen quvur uchun $Q=568,51$ VT ni tashkil qildi.



2-TOM, 10-SON

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shaxarsozlik norma va qoidalari SHNQ 2.04.14-2022 “USKUNALAR VA QUVURO’TKAZGICHLARNI ISSIQLIK IZOLYATSIYASI”
2. К.В.Тихомиров, Э.С.Сергеенко “ТЕПЛОТЕХНИКА-ГАЗОСНАБЖЕНИЯ И ВЕНТИЛЯЦИЯ” Москва Стройиздат 1991
3. Ю. Д. Сибикин “ОТОПЛЕНИЕ, ВЕНТИЛЯЦИЯ И КОНДИЦИОНИРОВАНИЕ ВОЗДУХА” Москва Издательский центр “Академия” 2015
4. Internet saytlar: www.google.com , www.probatum-est.ru ,



2-TOM, 10-SON

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA FOLKLORIZMNING ROLI VA
UNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Yakubova Shaxlo Avazxonovna

doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Telefon raqam: +998 99 039 18 91

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy O'zbek adabiyotidagi folklorizm tushunchasi va uning adabiyotda namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Folklorizm — xalq og'zaki ijodi elementlarini adabiy asarlarga kiritish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Ushbu maqola xalq og'zaki ijodiy merosining zamonaviy adabiy jarayonlarga ta'siri, folklor motivlari va obrazlarining yangi asarlarda qayta ishlanishi va o'zgacha tarzda talqin etilishiga bag'ishlangan. Folklorizmning adabiy janrlarga, shu jumladan she'riyat, proza va drama janrlariga bo'lgan ta'siri o'rganiladi. Mualliflar folklorizmning roli va ahamiyatini zamonaviy adabiy rivojlanish doirasida tahlil qilib, uni yangi davr O'zbek adabiyotidagi ijodiy jarayonlarning muhim elementi sifatida qayd etadilar. Ushbu maqolada folklorizmning zamonaviy adabiy tilga ta'siri ham o'rganiladi va adabiy va madaniy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: folklorizm, o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, zamonaviy adabiyot, adabiy motivlar, obrazlar, janrlar, ijodiy jarayon, madaniy rivojlanish, til.

Kirish. Folklorizm adabiyotshunoslikda xalq og'zaki ijodi elementlarini adabiy asarlarda qo'llash jarayonini ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi — bu milliy madaniyatning muhim qismi bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, hayotiy tajribalari va badiiy estetik qarashlari mujassamdir. Zamonaviy adabiyotda folklorizmning roli tobora ortib bormoqda, chunki u xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishga xizmat qiladi hamda ijodiy yangilik kiritish imkonini beradi. Shu sababli zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor elementlarini tahlil qilish, ularning asarlarda qanday ishlatilayotganini va qaysi yo'nalishlarda rivojlanayotganini o'rganish dolzarb masalalardan biridir²⁸. Folklorizmning zamonaviy O'zbek adabiyotidagi o'rni xalq an'analarini zamonaviy asarlar bilan uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. Yozuvchilar va shoirlar xalq og'zaki ijodining turli elementlaridan, jumladan dostonlar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, maqollar va topishmoqlardan foydalangan holda yangi asarlar yaratmoqdalar. Bu orqali ular nafaqat o'z asarlarini milliy ruh bilan boyitadi, balki o'quvchilarga milliy madaniyatni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Folklor motivlari asarlarning mavzusini boyitadi, qahramonlarning

²⁸ Jalolov, J. "O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti." Toshkent: Fan nashriyoti, 2018, 45–67-betlar.



2-TOM, 10-SON

obrazlarini yanada jonli va ishonchli qiladi, shuningdek, badiiy asarlar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga yordam beradi²⁹.

Folklorizm zamonaviy O'zbek adabiyotida turli janrlarda o'z aksini topmoqda. She'riyat, proza va dramaturgiya kabi janrlarda folklor motivlaridan foydalanish adabiy asarlarning uslubiy boyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, she'riyatda xalq og'zaki ijodi elementlari badiiy ifoda vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda, chunki xalqning poetik obrazlaridan foydalanish orqali milliy ma'naviyatni ifodalash imkoniyati kengaymoqda. Maqolada folklorizmning zamonaviy O'zbek adabiyotidagi o'rni va rivojlanish yo'nalishlari keng tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy adabiyot o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, folklorizmning yangi asarlarda namoyon bo'lishi o'rganiladi. Shuningdek, folklor motivlarining zamonaviy o'zbek asarlarida qayta ishlanishi va talqin etilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Folklorizm adabiyotda xalq og'zaki ijodi elementlarini qo'llash jarayonidir. Bu uslub asarlarga milliylik ruhini kiritish, an'analarni saqlab qolish va xalqning estetik qarashlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega³⁰. Folklorizm asarlarning obraz va motivlariga chuqur ma'no bag'ishlaydi, ularni keng qamrovli madaniy kontekstda aks ettiradi. Zamonaviy O'zbek adabiyotida folklorizmning keng qo'llanilishi adabiy jarayonlarda xalq og'zaki ijodiyoti elementlarining naqadar dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Adabiyot xalqning og'zaki ijodiga asoslanib, o'sha ijodning davomi sifatida qaraladi. Bu jarayonda yozuvchilar va shoirlar xalqning o'ziga xos dunyoqarashini, madaniy merosini, badiiy ifoda uslublarini yangi zamon asarlariga qo'shib, ular orqali milliy qadriyatlarni ifodalashga intiladi. Xalq og'zaki ijodi — bu shunchaki badiiy yo'nalish emas, balki har bir millatning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Shu sababdan, zamonaviy o'zbek adabiyotida folklorizm milliylikni saqlab qolish va asarlarni yanada boy qilish vositasi sifatida keng o'rganilmoqda.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor motivlari va obrazlari turli janrlarda qayta ishlanmoqda. Bu janrlar orasida asosan she'riyat, proza va drama janrlari ajralib turadi. Folklorizm she'riyatda xalqning obrazlari, ramzlari va poetik tili orqali namoyon bo'ladi³¹. Yozuvchilar xalq og'zaki ijodidagi dostonlar, maqollar va topishmoqlarni badiiy ifoda vositasi sifatida qo'llab, zamonaviy she'rlar yaratmoqdalar. Bu jarayonda xalqning eng qadimiy tushunchalari, qadriyatlari va estetika talqinlari yangicha ifoda topadi. Proza janrida folklor motivlarining qayta ishlanishi keng miqyosda olib borilmoqda. Zamonaviy romanchilar xalq afsonalari, ertaklari va qo'shiqlarini o'z asarlarida qayta yaratish orqali

²⁹ Bakiyeva, G. "Zamonaviy O'zbek adabiyoti va folklor." Toshkent: Sharq, 2020, 112–128-betlar.

³⁰ Saidaliyev, S. "Folklorizm va milliy madaniyat." O'zbekiston adabiyoti, 2019, 55–70-betlar.

³¹ Jalolov, M. "O'zbek adabiyoti tarixi." Toshkent: Ma'naviyat, 2016, 189–205-betlar.



2-TOM, 10-SON

milliy an'analarni o'quvchilarga yaqinlashtirmoqda. Masalan, xalq qahramonlari yoki mifologik obrazlarning zamonaviy asarlar qahramonlari sifatida tasvirlanishi badiiy obrazlarning yanada jonli bo'lishiga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan universal motivlar va mavzular, masalan, sevgi, jasorat, mardlik va halollik, zamonaviy adabiy qahramonlar xarakterlarida aks ettirilmoqda. Drama janrida esa xalqning an'anaviy rollari va marosimlari sahnaga olib chiqiladi³². Bu orqali zamonaviy o'zbek dramaturgiyaga xalq og'zaki ijodining ifodaviy vositalari kirib kelmoqda. Folklor elementlari, masalan, xalq kuy-qo'shiqlari, o'yinlari va tomoshalari zamonaviy sahna asarlarida yangi talqinda berilmoqda. Bu usul tomoshabinlar bilan milliy madaniyatni jonlantirish va uni asarlar orqali saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklorizmning turli janrlarda namoyon bo'lishi adabiy jarayonlarga rang-baranglik qo'shmoqda. She'riyatda folklorizm xalqning eng qadimiy estetik tuyg'ularini ifoda etish vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Masalan, o'zbek xalq maqollari va topishmoqlari zamonaviy she'rlarda badiiy ifoda vositasi sifatida foydalaniladi. Yozuvchilar xalqning teran dunyoqarashini xalqona obrazlar va ramzlar orqali ifodalaydilar. Ayniqsa, xalqona hikmat va qadriyatlar milliy she'rlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Prozada esa folklorizm xalqning qadimiy afsonalari va qahramonlik dostonlarini qayta ishlash orqali o'z aksini topmoqda. Yozuvchilar xalqning tarixiy qahramonlarini zamonaviy qahramonlar sifatida tasvirlash orqali asarlarida milliy qadriyatlar va madaniyatni boyitmoqdalar. Xalq afsonalaridagi qahramonlik, jasorat va halollik kabi motivlar zamonaviy romanlarda keng qo'llanilib, asarlarning mazmunini boyitadi. Drama janrida esa xalqning marosimlari, o'yinlari va urf-odatlarini sahnaga olib chiqiladi³³. Bu janrda folklor motivlari teatr tomoshalarida milliy an'analarni jonlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Xalqning marosimlari va o'yinlari teatr asarlarini rang-barang qilib, tomoshabinlar bilan milliy madaniyatni jonlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy dramaturgiya xalqning badiiy estetik qarashlarini yangi ifodaviy uslublar bilan boyitishga xizmat qiladi. Folklorizmning zamonaviy o'zbek adabiyotida rivojlanish yo'nalishlari ko'p qirrali va xilma-xildir. Xalq og'zaki ijodiyoti elementlari badiiy asarlarda yangi talqinda ifodalanib, ularning mazmun va shaklini boyitishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy yozuvchilar va shoirlar folklor elementlaridan nafaqat milliy ruhni saqlab qolish, balki ijodiy yangilik kiritish maqsadida foydalanmoqda. Folklorizm zamonaviy o'zbek adabiyotiga yangi uslublar, motivlar va obrazlar olib kirib, milliy va zamonaviylikni

³² Yuldashev, A. "Folklorizmning zamonaviy adabiyotga ta'siri." *O'zbek tili va adabiyoti*, 2021, 73–92-betlar.

³³ Rahmonov, I. "Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy o'zbek adabiyoti." *Toshkent: Yangi asr avlodi*, 2017, 134–149-betlar.



2-TOM, 10-SON

uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, folklorizm xalqning tarixiy merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi³⁴. Yozuvchilar va shoirlar xalq og'zaki ijodini zamonaviy adabiyotga qo'shib, milliy madaniyat va an'analarni asrab qolish maqsadida xalq motivlari va obrazlarini asarlarda ifoda etmoqdalar. Bu jarayon xalq og'zaki ijodining boy merosini yangi avlod o'quvchilariga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Folklorizm zamonaviy adabiyotda milliy tilni saqlashda ham muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi tilni boyituvchi, uni zamonaviy qiyofada taqdim etuvchi manba hisoblanadi. Shu sababdan yozuvchilar xalq og'zaki ijodi tili va uslubini qo'llash orqali o'z asarlarida milliy tilni jonlantirmoqdalar. Xalq og'zaki ijodidagi qadimiy so'zlar va iboralar zamonaviy adabiy tilda qayta ishlanib, milliy madaniyatni ifodalashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Folklorizmning bu yo'nalishi adabiy tilni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega³⁵. Yozuvchilar xalq og'zaki ijodidagi tildan foydalanib, asarlarida milliy qadriyatlarni aks ettirish bilan birga, tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqdalar. Bu jarayon milliy tilni zamonaviy o'zbek adabiyotida yangi talqinda jonlantirishga imkon beradi.

Xulosa. Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklorizm xalq og'zaki ijodi elementlarini asarlar bilan uyg'unlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Folklorizm milliy madaniyatni, qadriyatlarni va an'analarni saqlab qolish va ularni yangi avlodlarga yetkazish uchun ijodiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Yozuvchilar va shoirlar xalqning boy og'zaki merosidan ilhomlanib, zamonaviy asarlarni yaratishda an'anaviy motivlar va obrazlardan foydalanmoqda. Bu jarayon milliy madaniyatni jonlantirish va uni zamonaviy davr adabiyotida aks ettirish imkonini beradi.

Zamonaviy adabiyotda folklorizmning o'rganilishi milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Folklorizm milliy adabiy tilni boyitishda, asarlardagi estetik ifoda vositalarini kengaytirishda va qahramonlar obrazlarini yanada jonli va ishonchli qilishda muhim rol o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelajakda folklorizmning adabiyotda qo'llanishi davom etishi kutilmoqda, chunki bu uslub xalq madaniyatini zamonaviy adabiy jarayonlarga olib kirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodidagi obraz va motivlarning zamonaviy asarlarda qayta ishlanishi yozuvchilarga milliy ruhni ifodalash va ijodiy yangilik kiritish imkonini beradi.

³⁴ Mahkamov, T. "Zamonaviy adabiyotda folklor va adabiy an'analar." Toshkent: Ilm-fan, 2019, 101–118-betlar.

³⁵ Abdullayev, R. "Folklorizmning adabiyotda yangicha talqini." Toshkent: Adabiyot va san'at, 2020, 210–225-betlar.



2-TOM, 10-SON

Shunday qilib, folklorizm zamonaviy O'zbek adabiyotida milliy madaniyat va adabiy ijodning uzluksiz rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, R. "Folklorizmning adabiyotda yangicha talqini." Toshkent: Adabiyot va san'at, 2020, 210–225-betlar.
2. Bakiyeva, G. "Zamonaviy O'zbek adabiyoti va folklor." Toshkent: Sharq, 2020, 112–128-betlar.
3. Jalolov, J. "O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti." Toshkent: Fan nashriyoti, 2018, 45–67-betlar.
4. Jalolov, M. "O'zbek adabiyoti tarixi." Toshkent: Ma'naviyat, 2016, 189–205-betlar.
5. Mahkamov, T. "Zamonaviy adabiyotda folklor va adabiy an'analar." Toshkent: Ilm-fan, 2019, 101–118-betlar.
6. Rahmonov, I. "Xalq og'zaki ijodi va zamonaviy o'zbek adabiyoti." Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, 134–149-betlar.
7. Saidaliyev, S. "Folklorizm va milliy madaniyat." O'zbekiston adabiyoti, 2019, 55–70-betlar.
8. Yuldashev, A. "Folklorizmning zamonaviy adabiyotga ta'siri." O'zbek tili va adabiyoti, 2021, 73–92-betlar.



2-ТОМ, 10-СОН

**ПАСТ ЗИЧЛИКДАГИ ПОЛИЭТИЛЕННИНГ (ПЗП) ФИЗИК-МЕХАНИК
ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ**

Турдимуродов Отабек Бахтиёр ўғли,

Ассистент, Термиз Давлат Университети

Назаров Юсуф Эшқобилович

ўқитувчи,

Усанова Фарзона Бекназар Кизи

Шарифова Лола Баходировна

Термиз Давлат Университети Талабаси

Кимё саноатида нанозаррачаларнинг улуши жуда кам бўлишига қарамасдан, улар асосидаги модификаторларга бўлган талаб кескин ортмоқда. Бунга сабаб, уларнинг юқори физик-механик ва эксплуатацион хоссалари, агрессив муҳитлар таъсирига барқарорлиги ва ҳароратнинг кенг оралиғида ишлатиш мумкинлигидир.

Ден Сипрари ва бошқалар металл бўлмаган асосдаги композицион материаллар металл асосидаги композицион материалларга нисбатан яхши технологиклиги, паст зичлик ва қатор ҳолларда нисбатан юқори солиштирма мустаҳкамликка ва қаттиқликка эга эканлигини, бундан ташқари, металл бўлмаган асосли материаллар бошқа қимматли хоссаларга юқори коррозион чидамлилиқ, яхши иссиқдан химоя қилувчи ва амартизацион хусусиятли, антифрицион ва фирицион хоссаларига эга ҳамда металл бўлмаган матрицали композиционли материал органик толалар бундан мустасно, тез қаттиқлашиши ва паст диффузия коэффициенти туфайли компонентлардаги таркибий қисмлар ўртасида ўтиш қатлами мавжуд эмас деб ҳисоблаганлар [1, С. 62-65].

Д.Р.Кежаев ўзининг илмий тадқиқотларида маҳаллий хомашё асосида мис (II), магний ва алюминий оксалатларининг нанометрли зарралари синтезлаган ҳамда мис (II), магний ва алюминий оксалатлари асосида полимер композит материалларини олиган ва уларнинг хоссалари аниқлаган [2, 44 б].

Намуналарнинг чўзилишдаги мустаҳкамлигини аниқлаш. Бунда минутига 20 мм тезликка эга бўлган аппаратда чўзилиш мустаҳкамлиги аниқланди. Композит материалдан тайёрланган паст зичликка эга бўлган полиэтилен намунаси чўзилишга мустаҳкамлиги кўрсаткичлари давлат стандарти талабига жавоб бериши ўрганилди (ГОСТ 11262-80).

Тез қаттиқлашиши ва паст диффузия коэффициенти туфайли композит материаллар таркибий қисмлар ўртасида ўтиш қатламига эга эмас. Шунинг учун композит материалларда модификатор сифатида нанопиллерлардан фойдаланиш



2-TOM, 10-SON

кучнинг ошишига, молекуляр ўзаро таъсирга олиб келади, бу толанинг сирт энергиясининг қийматини тавсифловчи критик сирт таранглиги ошиши билан ортади. Компонентлар орасидаги юқори боғланиш кучини таъминлаш учун толаларни тўлик намлаш керак, бунга, масалан, толалар юзасига суюқ боғловчини ёйиш орқали эришилади; бу ҳолда толалар сиртининг энергияси суюқлик матрицасининг сирт таранглигидан каттароқ бўлиши керак.

1-жадвал


Магний оксалат билан модификацияланган ПЗП нинг физик-механик хоссасининг ўзгариши.

Композиция таркиби,(ПЗП)нинг 100 масса қисмга нисбатан	Магний оксалат		
	Композиция таркиби,(ПЗП)нинг 100 масса қисмга нисбатан	Узилишдаги нисбий узайиш, %	Солиштирма қовушқоқлик, кж/м ²
ПЗП+0,1	8,5	910	26,4
ПЗП+0,3	9,0	645	28,5
ПЗП+0,5	9,2	480	32,7
ПЗП+0,8	9,8	376	35,6
ПЗП+1,0	14,4	165	39,5
ПЗП+2,0	14,6	124	41,6

1-жадвалда магний оксалат билан модификацияланган ПЗП нинг физикавий ва механик хоссаларининг қонуниятини кўрсатилган. Жадвалдан кўришиб турибдики, магний оксалат концентрациясининг ошиши билан композитнинг барча келтирилган механик хоссалари ошди. Ўзгариш асосан узилишдаги нисбий узайиш билан содир бўлди 9,52 % дан 11,6 % гача, ва чидамлилиқ эса қўшимчалар концентрациясининг ўзгаришига нисбатан кам мос келди.



2-TOM, 10-SON



1-расм. ПЗП нинг узилишида нисбий узайишни (%) қўшимчалар нисбатига боғлиқлиги(%): 1.Алюминий оксалат. 2. Мис (II) оксалат. 3 Магний оксалат,

Узилишдаги нисбий узайиш қўшимча концентрацияси ошиши билан камайди. Бу барча намуналарда қўшимча концентрациясининг 1% гача бўлган диапазонда очик кўринди. Шундан сўнг, композициянинг нисбий узайиши аста-секин қўшимчанинг концентрациясининг ўзгаришига таъсир қилди (1-расм).

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ден Сипрари, Карл Джейкоб и Рина Танненбаум, «Характеристика полимера». Нанокompозит Интерпхасе и ее влияние на механические свойства макромолекули», том 39, 2006, С. 6565-6573.
2. *Кенжаев Д.Р. “Паст зичликка эга бўлган полиэтиленни маҳаллий хомашёлар асосида модификациялашнинг технологик жараёнини ишлаб чиқиш” //дисс.авторреферат. Тошкент 2019. 32 бет. 75. 105-бет.*



2-TOM, 10-SON

❖ UY XO'JALIKLARNI DAROMADLARINI OSHIRISHDA
TADBIRKORLIK O'RNI.

Hamidov Diyorbek Jo'ra o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot va axborot texnologiyasi fakulteti
moliya va moliyaviy texnologiya yo'nalishi 2-kurs 222-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishda tadbirkorlik
foliyatini o'rnini haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Mamlakat, tadbirkorlik, uy xo'jaligi, barqoror model, natija
bozor,iqtisodiyot.

O'zbekiston deb ataluvchi bizning hudud nafaqat sharq balki butun dunyoda tadbirkorlik sohasida yetakchilik qilmoqda.Iqtisodiyotni taroqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazrligi huzurida Mahallada ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agintlik, mahallada aholi bandligini ta'minlash va kambag'llikni qisqartirish masalalari boyicha. Uy xo'jaligi o'zining daromad manbayiga ega bo'lgan bir kishidan ham iborat bo'lishi mumkun.Uy xo'jaligi moliya munosabatlaridan tashqarida bo'lishi mumkin emas, u doimo uy xo'jaligigi nisbatan uning tashqarisida bozor subektlari bilan yuzaga keluvchi munosabatlarga kirishadi. Uy xo'jaliklari moliyasining ijtimoyi-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalari orqali namoyon bo'ladi. Uy xo'jaliklari moliyasi quyidagi funksyalarni bajaradi:

- 1.Taqsimlash;
- 2.Tartibga solish;
- 3.Nazorat;
- 4.Investitsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda kambag'likni qisqartrish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqoror rivojlanish bo'yicha bir qator chora – tadbirlar, strategiyalar,konsepsiyalar ishlab chiqmoqda. Jumladan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti strategiyasiga muvofiq 2026-yil oxiriga qadar mamlakatda kambag'allik darajasini ikki barobarga kamaytirishda rejalashtirilmogda.

Kambag'alikni qisqartirishning bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan,oilaviy tadbirkorlikni kichik biznes,yakka tartibdagi tadbirkorlik, o'zini-o'zi band qiishi xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlikni yanada rivojlantrish yo'nalishlari



2-TOM, 10-SON

olib borilmoqda. Uy xo'jaliklari tamonidan amalga oshiriladigan xarajatlari quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi. Shaxsiy iste'mol xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, pul Jamg'armalari va omonatlar. Uy xo'jaliklari xarajatlarini kelgusi tavsif uchun turkumlashning boshqacha. Uy xo'jaliklari budjetining xarajatlar qismini uchta asosiy bo'linga bo'lib nazarida tutadi.

1. Majburiy to'lovlar.
2. Iste'mol xarajatlari.
3. Pul omonatlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xonadon ma'lum iqtisodiy resurslarga egalik qiladi. Ulardan samarali foydalanib, tirkchilik vositasi sifatida daromad keltiradi. Qishloq xojaliklari Mahsulotlari sotish, ishlab chiqirilgan maxsulotlar va xizmatlar, mulkiy daromatlar, davlat bujedidan olinadigan ictimoiy to'lovlar va boshqalar. Uy xo'jaliklarining yalpi daromadi - pul daromadlari, oziq-ovqat mahsulotlarining natura shaklidagi tushumlari hamda davlat va korxonalar tomonidan natura shaklida beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar, sovg'alar, to'plangan jamg'armalar bundan mustasno. Yalpi daromad ustunlik qiladi pul daromadlari, uy xo'jaligi o'z xarajatlarini qoplashi kerak bo'lgan pul miqdorini ifodalaydi. Pul daromadlari quyidagi manbalardan shakllanadi: 1) uy xo'jaligi a'zolarining mehnat shartnomalarini bajarish jarayonida olingan ish haqi, shuningdek mukofotlar, doimiy ish haqiga qo'shimchalar, ish beruvchilar tomonidan ijtimoiymadaniy maqsadlar uchun to'lovlar: nafaqalar, transport xizmatlari uchun to'lovlar, vaucherlar va boshqalar; 2) tadbirkorlik faoliyatidan olingan foyda, dividendlar, qimmatli qog'ozlar va depozitlar bo'yicha foizlar, ijara haqi va boshqalar ko'rinishidagi daromadlar; 3) pensiyalar, nafaqalar va byudjetdan va byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan boshqa to'lovlarning davlat ijtimoiy to'lovlari. 4) boshqa tushumlar sug'urta tovonlari, mulkni sotishdan olingan daromadlar va boshqalar. Ular milliy ishlab chiqarishni ta'minlovchi resurslar yoki mehnat omili xizmatlaridan oldin ishlab chiqarish omillaridan olingan daromadlar. Uy xo'jaliklarining jamg'armalar darajasini belgilovchi muhim omil bu uning daromadlari hajmidir. Daromad qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam qismi jamg'armalarga tushadi. Boshqa tomondan, agar iste'mol qilingan va jamg'arma o'rtasidagi nisbat o'zgarishsiz qolsa, jamg'arma darajasiga uy xo'jaligi olgan daromad miqdori ta'sir qiladi. Yuqorida aytilganlar bizga uy xo'jaliklarining ixtiyoriy daromadlari va iste'molga cheklov moyilligi jamg'armalar darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Ular, o'z navbatida, uy xo'jaligi uchun ichki va tashqi sabablar guruhi bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak uy xo'jaliklari iqtisodiy faoliyatning asosiy sub'ektlaridan biri bo'lib, uning natijalari nafaqat alohida iqtisodiy



2-TOM, 10-SON

birlikning, balki butun mamlakat aholisining farovonligini belgilaydi. Uy xo'jaliklari mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishda faol ishtirok etmoqda. Uning o'sishi butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning dinamikasini ta'minlaydi. Uy xo'jaliklari mamlakat iqtisodiyotiga eng to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi, ammo shunga qaramay, bozor munosabatlarining boshqa sub'ektlarining ta'siri ham katta va shubhasizdir. Yuqoridagi qayd qilinganlardan kelib chiqqan holda jamiyatda aholining daromatlariga qarab tabaqalanshuv mavjud, degan xulosa qilish mumkin degan xulosa qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Belozеров S.A. «Uy xo'jaliklari daromadlari» iqtisodiy kategoriyasining mazmuni. Pulning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy roli // Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari - Sankt-Peterburg, 2006. – 380 b.
2. Savitskaya G.V. Iqtisodiy faoliyat tahlili: Darslik. 3-nashr. - M.: INFRA-M, 2005.
3. Savitskaya G.V. Iqtisodiy faoliyat tahlili: Darslik. 3-nashr. - M.: INFRA-M, 2005.
4. Savchuk V.P. Korxonaning moliyaviy boshqaruvi. - M.: BINOM. Bilimlar laboratoriyasi, 2003.
5. Kaplan R. Uy xo'jaligi moliyasi: Rossiya moliya bozoriga ta'siri / Moliyaviy biznes, 2005 yil 3-son. - 63-73-betlar.
6. IQTISODIYOT VA TADBIRKORLIK Toshkent "o'qituvchi"2004 kitob.



2-ТОМ, 10-СОН

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВНИНГ ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ

Obloqulova Shodiya

Тошкент шаҳар Олмазор тумани 326-сонли Хорижий тилларга ихтисослашган
умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси


Узоқ вақтлардан буён хорижий давлатларда Европа Иттифоқи ва АҚШда аграр соҳани бошқариш назариясида бозорга мувофиқлаштириш ва бозор орқали мувофиқлаштиришнинг ўзи кифоя, деган тушунча устунлик қилиб келган бўлишига қарамадан, аграр ишлаб чиқаришни бошқариш концепциясида давлатнинг қишлоқ хўжалиги фаолиятига аралашувисиз, уни қўллаб-қувватлашисиз, фақатгина давлат томонидан бошқариш яхши самара бермаслиги кўрсатилиб ўтилмоқда.

Иқтисодий ривожланган мамлакатлар тажрибасида аграр ишлаб чиқаришни бошқариш омиллари (тартибга солиб турувчи) фаол иштирок этиши ижобий натижалар бермоқда. Иқтисодий ривожланган давлатлар (Франция, Италия, АҚШ, Япония, Германия, Англия, Норвегия, Дания ва бошқалар) агросаноат комплексини бошқариш қишлоқ хўжалиги корхонаси тизимида олдинга қўйилган маълум бир мақсадларга эришишга, сўнгра маълум бошқариш қарорларини қабул қилишга қаратилган. Умумназарий ёндашишда, микродаражада хорижий давлатларда аграр корхоналар (фирма, кооператив, корпорация ва ҳоказо) ташкил этиш ва фаолият юритишдаги қўйилган мақсад фойда олишга қаратилган. Макродаражада эса, хорижда аграр тизимни бошқариш учта асосий мақсадга эришишга қаратилган бўлади, (1-расмда). Аграр соҳани давлат томонидан мувофиқлаштириб турилишидаги асосий вазифа, озиқ-овқат бозори инфратузилмасида энг паст даражада ҳимояланган товар маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлашга қаратилган. Давлат томонидан амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг мақсади – бозор муносабатлари ривожланган шароитда қишлоқ хўжалиги корхоналарини фойда олиш ҳисобига фаолият кўрсатишини таъминлаш учун уларга бошқа давлатлар



2-TOM, 10-SON

маҳсулот ишлаб чиқарувчилари билан тенг (ёки устуворлик) рақобат шароитини яратиб беришдан иборат.



1-расм. Хорижий давлатларда аграр соҳани бошқаришдаги асосий макроиқтисодий мақсадлар.

Ривожланган давлатларда аграр соҳанинг фойда ҳисобига фаолият юритиши кўйидаги шароитларда амалга оширилмоқда:

- ички бозорда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нархи, нафақат маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ўз харажатларини қоплаши балки маълум даражада соф фойда олишини ҳам таъминлаши;
- қишлоқ хўжалик маҳсулотлари таннархини бюджетдан тўғридан-тўғри субсидиялар бериш орқали пасайтиришга ёрдам бериш.

Шуни таъкидлаш лозимки, иқтисодий ривожланган барча давлатларда қишлоқ хўжалиги ривожланишига катта эътибор берилади. Бунга мисол қилиб Норвегияни келтириш мумкин. Бу шимолда жойлашган қишлоқ хўжалиги учун ноқулай бўлган, аммо саноати ривожланган давлат ҳисобланади. Киши бошига 32 минг киловатт-соат электр энергияси ишлаб чиқарилади. Бу АҚШга нисбатан 2,4 маротаба кўп, Японияга нисбатан 3,8 маротаба, Германияга нисбатан 4,9 маротаба кўп демакдир.

Давлат томонидан қўллаб-қувватлашга ажратилган маблағ киши бошига ҳисобланганда 650 АҚШ долларини ташкил қилмоқда. Қишлоқ хўжалиги бундай



2-TOM, 10-SON

тарзда қўллаб-қувватланишини бошқа ривожланган давлатлар мисолида ҳам кўриш мумкин. Жумладан, Японияда киши бошига 550 АҚШ доллари, АҚШда 300 долларни ташкил қилмоқда.

Шундай қилиб, қишлоқ хўжалиги фаолиятини фойда билан ташкил қилишнинг юқорида санаб ўтилган йўллари, иқтисодий ривожланган мамлакатлар аграр секторини мувофиқлаштириш асослари бўлиб ҳисобланади. Қишлоқ хўжалигини мувофиқлаштиришнинг асосий йўналишларидан бири – бу, соаҳани қайтариладиган ва кўп ҳолларда қайтирилмайдиган субсидиялар билан таъминлашдан иборат.

Шунга ҳам эътибор бериш лозимки, аксарият ривожланган давлатларда аграр соҳани бошқариш тизими биргина давлат томонидан мувофиқлаштиришдан иборат бўлмай, балки, хўжалик даражасида ўзини-ўзи бошқаришдан ҳам иборат. Масалан, Англия, АҚШ, Франция ва бир қатор бошқа давлатлар тажрибалари кўрсатишича, давлат тизими билан бир қаторда, параллел равишда, аграр соҳада қишлоқ хўжалигини вертикал бўйича бошқариш тизими турли хил иттифоқлар, бирлашмалар, кенгашлар, кооперативлар тарзида ҳам олиб борилади.

Хўжалик бошқариши фаолият кўрсатаётган агрокомплекс тасарруфига кирувчи биргина маҳсулот етиштириш билан шуғулланувчилар эмас, балки, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи, сотувчи, ишлаб чиқариш қуроллари етказиб берувчи, сервис хизмати кўрсатувчи ва бошқа хил фаолият билан шуғулланувчи кооперация ва хўжалик субъектларининг интеграцияланишига асосланган.

Бундай кооперативлар ва интеграллашган бирлашмалар тузилишининг асосий омилларига хўжалик иерархияси бўйича қуйидагиларни киритиш мумкин:

- хўжалик тизимлари ташкил қилишда асосан кооперативларга асосланган соҳалар ва ҳудудлар омилларини бир-бирига мослаштириш;
- бошқаришда асосан икки поғонали тизимни қўллаш (АҚШда уч поғоналик, бизда тўрт поғоналик (республика, вилоят, туман ва хўжалик));



2-TOM, 10-SON

- фаолият юритишни аввало маҳсулот сотиш ва нархларни мувофиқлаштиришга қаратиш;
- соҳалар бўйича иттифоқларни умумдавлат миқёсида агро ташкилотларга бирлаштириш, бу ташкилот фермерлар манфаатини ҳукумат ва парламентда ҳимоя қилиши зарур;
- хўжалик юритиш субъектлари ўз фаолияти давомида сиёсий партиянинг катта ёрдамига таяниши;
- керакли маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун квоталар ва субсидиялар тақсимланишини соҳалар иттифоқлари орқали амалга ошириш;
- баъзи мамлакатлар (АҚШ, Англия, Франция ва бошқалар) каби соҳа иттифоқлари тизимига амалий тадқиқотлар олиб бораётган илмий-тадқиқот институтларини киритиш.

Хорижий мамлакатлар аграр сектори ривожланишида фермерлар кооперативлари, фермерлар иттифоқлари, оилавий фермерлар ўз таркибида омборхоналар, асбоб-ускуналар, компьютер технологиялари мавжуд бўлган ассоциациялар катта роль ўйнамоқда.

Фермерлар иттифоқи ва ассоциациялар миллий ва маҳаллий даражада бир-бири билан мустақам алоқада фаолият юритади ва фермер хўжаликларига хизмат кўрсатади. Биринчидан, қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг умумий сиёсий йўналишлари бўйича (маҳаллий, ҳукумат ва парламент томонидан илгари сурилаётган) маслаҳатлар бериш, иккинчидан эса, техник ва технологик муаммолар ечими таъминланиши ташкил этилишига ёрдам беради. Фермерлар бирлашмаси ичида турли даражада маслаҳат марказлари тузилади. Миллий қишлоқ хўжалиги маслаҳат (консультатция) маркази, жойлардаги марказларни ахборот маълумотлари, шунингдек, ишлаб чиқаришдаги илғор тажрибалар бўйича маълумотлар билан таъминлаб туради. Бундай маслаҳат марказларининг асосий вазифалари куйидагилардан иборат:



2-TOM, 10-SON

- қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларга ишлаб чиқариш услубларини такомиллаштиришда ёрдам кўрсатиш;
- чорва моллари наслини яхшилаш;
- фермерларга қишлоқ хўжалиги экинлари зараркунандалари ва касалликларига қарши курашиш тадбирларида ёрдам кўрсатиш;
- фермерлар учун ўқув курслари ташкил қилиш;
- фермерларни илмий янгилик маълумотлари билан таъминлаб туриш;
- молия ва солиқ тизими учун керакли маълумотлар тайёрлашни ташкил қилиш.

Хорижий давлатларда агрокомплекс тизимини бошқаришга баҳо беришда шу нарсага эътибор бериш керакки, аксарият иқтисодий ривожланган давлатларнинг асосий салоҳияти (потенциали) улардаги аграр корхоналар сони, қишлоқ хўжалиги маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмида эмас, балки ишлаб чиқариш жараёнини илмий-техник таъминот даражаси, бошқариш тизими самарадорлигини ошириш ҳисобига кам миқдордаги ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланишда эканлигига ишонч ҳосил қиламиз. Санаб ўтилган омиллар биринчи навбатда, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини ошириш ва уларни жаҳон бозорида юқори рақобатбардошлигини таъминлайди. Шундай қилиб, агрокомплексни бошқаришда ғарб модели ва унинг асосий омилларидан фойдаланиш мамлакат агросаноат комплексини бошқариш тизими самарадорлигини оширишга хизмат қилиши мумкин.

Жаҳон банки томонидан олиб борилган аграр соҳада бошқаришни барча иерархияда маҳаллийдан тортиб, то глобал даражагача такомиллаштириш бўйича тадқиқот натижалари кўрсатишича, ривожланиши турли даражада бўлган мамлакатларда бошқариш сифати бўйича келтирилган маълумотларда бир қатор эътиборга сазовор томонлари бор жумладан, қишлоқ хўжалигидан ривожланиш учун фойдаланишда бошқаришнинг ролига катта аҳамият берилган. Жаҳон банки маълумотларида келтирилишича, ривожланаётган давлатларда бошқаришда



2-TOM, 10-SON

куйидаги муаммоларга дуч келинмоқда: сиёсий ва иқтисодий нобарқарорлик, жамоатчилик фикрини ҳисобга олишдаги қийинчиликлар, бошқариш идоралари жавобгарлигининг паст даражадалиги, давлатнинг имкониятлари чегараланганлиги, коррупция, ҳуқуқий базанинг мустаҳкам эмаслиги таъсир кўрсатади.

Иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда қишлоқ хўжалигини бошқаришда қонунчилик ва ҳуқуқий асосларни мустаҳкамлашга катта эътибор берилади. Жумладан, қишлоқ хўжалигига давлат аралашувининг ортиб бориши, аграр муносабатларни тартибга солиш, ижарачини мулк эгасидан муҳофаза қилиш – бу Франция ва Европа иттифоқига қиравчи ақсарият давлатларнинг аграр соҳани тартибга солиш ва бошқариш масалаларига тегишли қонунчилик тизимидан мустаҳкам ўрин олган.

Бошқарувнинг Япония тажрибаси³⁶. Япония компанияларида татбиқ этилаётган корпоратив бошқарув стратегияси. Япония компанияларида жорий қилинган бошқа усуллар: жумладан, “ҳаво ранг океан” усули ривожланмаган бозор стратегиясига йўналтирилган бўлиб, унда компаниялар томонидан кўзланган асосий мақсад – рақобат муҳити мавжуд бўлмаган шароитдаги иқтисодиётнинг дастлабки ривожланиш босқичида фақат катта фойда олишдан иборат.

Иккинчи усул бу янги маҳсулотни ўзлаштиришда қўлланиладиган “7 қадам” тамойили бўлиб, бунда маҳсулот ҳақида ахборот йиғилади, таҳлил этилади, бизнесни муваффақиятли амалга ошириш имкониятлари аниқланади, ҳаракат режаси ишлаб чиқилади ва татбиқ этилади. Шунингдек, нархи ҳамда сифатининг юқори ва паст даражадалигини таққослаш орқали ҳам маҳсулот бозори таҳлил қилинади. Бундан ташқари, маҳсулотнинг ички ёки ташқи бозорда қандай сотилиши ҳам ўрганилади. Хуллас, бирор-бир маҳсулот ишлаб чиқарилишидан олдин ҳозиргача мавжуд бўлган шундай маҳсулот бозори юқоридаги тамойиллар орқали чуқур ва ҳар томонлама

³⁶ www.biznes-daily.uz



2-TOM, 10-SON

ўрганилади. Бу жараён шундай ташкил этиладики, натижада бозордаги истеъмол талаби катта бўлган товардан ҳам харидоргир, сифатли бўлган ҳамда бозорда биринчи ўринга чиқиб олувчи маҳсулот ишлаб чиқарилишига эришилади.

Яна бир усул — “Kaizen” ва сифат назорати деб аталиб, у корxonанинг барча ходимларини жалб қилиш йўли билан ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини таъминлашнинг кучли қуроли саналади. Бу жараён компания ишчиларининг ўз устида доимий изланиш олиб боришга ва умумжамоа меҳнатига ўз улушини доимий равишда қўшишга ундаши билан аҳамиятлидир.

Муаммоларни аниқлаш, сабабларни таҳлил этиш, унга кўра ҳаракат режасини тузиш ва уларни ҳаётга татбиқ этиш, якунини текшириш ва стандартлаштириш йўли билан эришилган натижаларни мустаҳкамлашдан иборат яна бир усулнинг (PDCA) япон компанияларида жорий этилаётгани ката қизиқиш ўйғотмоқда. Бундан ташқари, муаммолар сабабларининг илдизини аниқлаш мезони бўйича воситани (4M) ҳамда танлаш-тозалаш, саралаш-стандартлаштириш, аралаштирмоқ-тозаламоқ, риоя қилиш-қўллаб-қувватлаш, ўзини интизомга бўйсундириш-доимий такомиллаштириш (5 S) каби тамойиллардан иборат иш жойини ташкиллаштириш қуроли каби воситаларни ҳам юқоридаги усуллар қаторига қўшиш мумкин.

Шу ўринда бизнесни бошқаришнинг “японча усули” кўникмаларини Ўзбекистон иқтисодиётининг турли тармоқларидаги корxonаларда татбиқ этишдаги ўзига хос ўрин тутишини алоҳида таъкидлаш мумкин.

Шу нуқтаи назардан айтиш мумкинки мамлакатимиз иқтисодиётининг аграр тармоғини ислоҳ қилиш ва бошқариш тизимини ривожлантириш борасидаги эришилган ютуқларни инкор этмаган ҳолда ислоҳотларнинг навбатдаги босқичларида давлатимиз томонидан юритилаётган аграр сиёсат талабларидан келиб чиқиб, тармоқни бошқариш тизимини янада эркинлаштириш, бошқарувнинг демократик ва иқтисодий тамойилларини таъминловчи меъёрий ҳужжатларни такомиллаштириб бориш зарур бўлади.



2-TOM, 10-SON

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
ORGANLARINING O'RNI

Uteshov Askarali Ismetullayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

“O‘q otish” kafedra katta o‘qituvchisi, polkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda huquqni muhofaza qilish organlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Huquq-tartibot organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqiy tartibni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlashdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro hamkorligi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, huquqni muhofaza qilish organlari, jinoyatchilik, huquqiy tartib, O‘zbekiston, ichki ishlar, prokuratura, fuqarolar xavfsizligi, milliy xavfsizlik.

Kirish

Jamoat xavfsizligi har bir mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligini ta‘minlash uchun ko‘plab chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqqan. Ushbu jarayonda huquqni muhofaza qilish organlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, ijtimoiy tartibni saqlash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rni va ularning ishlash tizimi haqida so‘z yuritiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi

Jamoat xavfsizligi har qanday davlatning barqaror rivojlanishi va fuqarolar farovonligini ta‘minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning bugungi sharoitida jamoat xavfsizligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya, texnologik rivojlanish va global xavf-xatarlar jinoyatchilikning yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda, bu esa huquqni muhofaza qilish organlarining rolini kuchaytirishni talab etadi. O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlari islohotlari jarayonida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda yangicha yondashuvlar, samarali tizimlarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.



2-TOM, 10-SON

Shu sababli, mazkur tadqiqot huquqni muhofaza qilish organlarining jamoat xavfsizligidagi o'rnini aniqlash, amaliyotda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani va kelgusida nimalar qilinishi lozimligini o'rganishda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning materiali va muhokamasi

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyati asosiy tadqiqot materiali sifatida ishlatiladi. Tadqiqot O'zbekiston Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, ichki ishlar organlarining rasmiy hisobotlari va statistika ma'lumotlariga tayanadi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro ekspertlar tomonidan jamoat xavfsizligiga oid ilmiy maqolalar va tahliliy materiallar ham qo'shimcha manba sifatida foydalaniladi.

Muhokama: Tadqiqot davomida jamoat xavfsizligi masalalari keng tahlil qilindi va muhokama qilindi. O'zbekistonning huquqiy islohotlari kontekstida huquqni muhofaza qilish organlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, ichki ishlar organlari tomonidan yo'l harakati xavfsizligi, jinoyatlarni aniqlash va profilaktika qilish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotda mavjud kamchiliklar ham ko'rib chiqiladi. Ayrim hollarda jinoyatchilikning oldini olish choralari yetarlicha kuchli emasligi, yangi texnologiyalarni huquqni muhofaza qilish sohasiga keng joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish zarurligi aniqlangan.

Tadqiqotning muhim qismi jamoat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro tajriba bilan solishtirishga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekistonning jamoat xavfsizligi tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni qanday o'zlashtirishi va qo'llashi muhokama qilinadi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini samarali amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlashning ahamiyati ham tahlil qilingan.

Huquqni muhofaza qilish organlarining vazifalari

Huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy vazifalari jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Jinoyatchilikka qarshi kurash - Jinoyatchilik har qanday jamiyatga tahdid soluvchi omil hisoblanadi. Huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatchilikni aniqlash, oldini olish



2-TOM, 10-SON

va unga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ichki ishlar organlari, prokuratura va sud organlari jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish, adolatni tiklash va fuqarolarni himoya qilishga mas'uldir.

2. Huquqiy tartibni saqlash - Huquqiy tartibni saqlash – davlatning asosiy vazifalaridan biri. Bu jarayonda huquqni muhofaza qilish organlari jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun muhim choralarni amalga oshiradi. Xususan, yo'l harakati xavfsizligi, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda tartibni tiklash shular jumlasidandir.

3. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash - Huquqni muhofaza qilish organlari nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashadi, balki ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ham faol ishtirok etadi. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni saqlash orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda mahalliy politsiya tuzilmalari aholining kundalik xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, jumladan, xotin-qizlar, bolalar va boshqa zaif qatlamlarni himoya qilishga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish tizimi

O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish organlari tizimi ichki ishlar organlari, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati va sud organlaridan iborat. Ushbu organlar o'zaro hamkorlikda ishlash orqali jamoat xavfsizligini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari jinoyatchilikni aniqlash va oldini olish bilan shug'ullansa, prokuratura organlari jinoyat ishlarini tergov qilish, davlat xavfsizligi xizmatlari esa milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

Xulosa

Jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonning huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqiy tartibni saqlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu organlarning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'zni katta bo'lib, ular fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda asosiy rolni bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish, jamoatchilik



2-TOM, 10-SON

bilan hamkorlikni kuchaytirish va huquqiy bilimlarni oshirish kabi yo‘nalishlarda qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

Kelgusida jamoat xavfsizligini ta‘minlashda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati yanada takomillashtirilishi, xalqaro tajriba va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish orqali yanada yuqori samaraga erishish imkoniyatlari mavjud. Huquqni muhofaza qilish tizimidagi kadrlarning kasbiy malakasini oshirish ham jamoat xavfsizligini ta‘minlashda muhim omillardan biri sifatida qabul qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2022.
3. Karimov, I. A. “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Yo‘li”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot Xizmati, 2020.
4. Qodirov, A. “Huquqni Muhofaza Qilish Organlarining Faoliyati va Jamoat Xavfsizligi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2021.
5. Qayumov, R. “Jamoat Xavfsizligini Ta‘minlashning Huquqiy Asoslari”. Toshkent: Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi. “Jamoat Xavfsizligini Ta‘minlashga Oid Chora-tadbirlar”. Rasmiy hisobot, 2022.
7. Shirinov, D. “O‘zbekistonning Huquqiy Islohotlari va Xavfsizlik Siyosati”. Toshkent: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2022.



2-TOM, 10-SON

KRIPTOVALYUTALARNING HUQUQIY MAQOMI VA DAVLAT NAZORATI

Shahnoza Muzrapova

TISU, "Moliya va statistika" kafedrası o'qituvchisi

Shahobiddin Panjiyev

TISU, MMT yo'nalishi 2-kurs 222-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kriptovalyutalarning huquqiy maqomi, turli mamlakatlardagi tartibga solish usullari hamda davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan nazorat mexanizmlari o'rganiladi. Kriptovalyutalar rivojlanishi jarayonida huquqiy bo'shliqlar va xavflar ko'plab davlatlarni bu valyutalarni tartibga solish masalasiga ko'proq e'tibor qaratishga majbur qilmoqda. Shuningdek, maqolada davlatlarning kriptovalyutalarni qabul qilish yo'llari va ularning iqtisodiyotga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Kriptovalyuta, huquqiy maqom, davlat nazorati, tartibga solish, blockchain, moliyaviy xavfsizlik.

Abstract

This article examines the legal status of cryptocurrencies, regulatory methods in different countries, and control mechanisms used by states. In the course of the development of cryptocurrencies, legal loopholes and risks force many countries to pay more attention to the issue of regulation of these currencies. The article also discusses the ways in which countries adopt cryptocurrencies and their impact on the economy.

Key words: Cryptocurrency, legal status, government control, regulation, blockchain, financial security.

4. Yoshlarning mutaxassislik yo'nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo'nalishiga va istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi va boshqalar. Demakki, yoshlarni kelajakda mutaxassis sifatida o'zlarini teranroq tasavvur qilishlari va egallayotgan kasbiga xos-mos sifatlarni shakllantirishda pedagoglar va amaliyotchi psixologlarning o'рни kattadir. Yoshlarga ertangi kunda o'z faoliyatlaridan qoniqish hissini paydo qilishlari hamda o'z hayotlaridan mamnun yashashlari bugungi kundagi kasbni to'g'ri tanlay olishlariga bog'liqligini anglata olishlari lozim. Shundagina har bir inson har tomonlama sifatli hayot kechirishi va mavjud to'siqlarni osonlikcha yengib o'tishi mumkin bo'ladi. Natijada sohaning rivoji ancha tezlashadi. Bu esa jamiyat ravnaqidan dalolatdir. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlashga yo'naltirish davlatning chora-tadbirlari tizimidan iborat bo'lib shaxs tomonidan tanlanadi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: - maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

- kasb- hunar maorifi bilan shug'ullanish;
- radio, televidenie, kino, matbuotda tashviqot qilish;
- kasb yuzasidan maslahatlar;
- kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik o'quvchilarda tanlagan kasbga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- O'quv materiallarini, umuman ta'limni hayot bilan bog'lash.
- Ma'lumotlarni o'zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.
- O'tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobiy zamin hozirlash.
- Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va yosh bosqichining yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.
- O'quv-uslubiy qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o'rtasidagi uzviylikni yo'qotish.



2-TOM, 10-SON

- Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo'lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o'ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Shu boisdan ham har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim bo'ladi.

O'quvchilarga qanchalik o'z qiziqishlari, layoqati, xoxish-istaklari va qobiliyatlarini to'g'ri anglab yetish asosida kasb-tanlashlariga imkoniyat berilsa, shu sohaning taraqqiyotiga zamin hozirlangan hisoblanadi. Bu esa kelajakda yoshlarning o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishlariga imkon demakdir.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash lozim bo'ladi. Buning uchun oilada farzandnlarni tug'ilgan onlaridanoq uning o'ziga xos individualligini, layoqati va qobiliyatlarini o'rganish talab etiladi. Bu ishda ota-onalar ko'magidan foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassisi yordamida bolaning rivojlanayotgan qobiliyati aniqlanadi. Boshlang'ich sinflardan o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini to'g'ri tashxislanib, kasbga yo'naltirish ishlariga asos solinadi. Yoshlarning kasb-hunar tanlashi esa asosan o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra o'quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yosh va turli jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi.

Demakki, kasbiy faoliyatidan va shaxsiy hayotidan qanoatlangan insonning o'zini baxtiyor his qilishi g'oyasining mazmun-mohiyati yoshlar tomonidan to'liq anglanilmaganligi aniqlandi. Umuman yoshlarni kasbga yo'llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg'ularini, layoqat, qobiliyatlarini hisobga olish va psixologik savodxonligini oshirish, ularning kasbhunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo'yiladigan psixografik, professiogramkali talablarga moslashishga imkon beradi.



2-TOM, 10-SON

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. T.2003 yil.
2. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)
3. Khimmataliev D.O., Khakimova M.F., Beknazarova Z.F., Abdullayeva R.M., Minlishev R.Z. Formation of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.
4. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.
5. Matyoqubovna, A. R. (2022). YOSHLARNI TO'G'RI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH IJTIMOY VOQELIK SIFATIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 436-438



2-ТОМ, 10-СОН

ГЕОГРАФИК ОБЪЕКТЛАРНИНГ НОМЛАНИШИДА ДАВЛАТ ТИЛИ
МЕЪЁРЛАРИГА АМАЛ ҚИЛИНИШИ МАСАЛАЛАРИ

Сирожиддин Қурбонбоевич Сапарбаев

Бош прокуратура Кадрлар бошқармаси прокурори

Сўнги йилларда мамлакатимизда ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш, шунингдек тил сиёсатини такомиллаштиришга қаратилган чоралар кўрилмақда. Бироқ, биз бунинг учун биринчи навбатда она тилимиз ривожига салбий таъсир этаётган омилларни аниқлаб, уларни бартараф этишимиз ва пировардида ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақомини ўз ўрнига қўйишга эришишимиз лозим. Шулардан бири географик объектларнинг номланишида давлат тили меъёрларига қатъий амал қилиш ва унинг кенг имкониятларидан фойдаланиш масаласи ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонунининг³⁷ 3-моддасига кўра **географик объектлар** — ернинг ҳозирда ёки ўтмишда мавжуд бўлган ҳамда муайян ўрнашган жойи билан тавсифланадиган, келиб чиқиши табиий ёки сунъий бўлган яхлит ва нисбатан барқарор ҳосилалари ҳисобланади.

Маълумки, муайян ҳудудга берилган ном ўша маконнинг иқлим шароити, хусусияти, бирор тарихий воқелик билан боғланган бўлиши лозим. Ҳудуд номи кулоққа чалинганда унинг тарихий илдизлари, қандай иқлим шароитига эга эканлиги тўғрисида кишида тасаввур уйғониши лозим. Ҳозирда айрим ҳудудларда аҳоли томонидан қўйилган ва сақланиб қолган жой номлари борки, уларнинг айримлари юқорида кўрсатилган қонун талабларига мувофиқ келмайди.

Ҳуқуқни қўллашнинг ягона амалиётига эришиш нуқтаи-назаридан мавжуд масалани таҳлил қилиб кўрганимизда юртимизда номланиши тушунарсиз ва ғализ бўлган жой номлари яна кўплаб топилади.

Масалан, булар қаторига “Лағмон” (Сурхондарё), “Бўзахўр”, “Говхона”, “Бешэчки”, “Тул” (Фарғона), “Тулкиобод” (Андижон), “Буйрак”, “Гунггон”, “Бўрихона”, “Жунни”, “Олағарға” (Қашқадарё), “Касовли”, “Соқов” (Самарқанд), “Кўса” (Жиззах), “Оқтирноқ” (Тошкент вилояти), “Қўтирбулоқ” (Навоий, Бухоро), “Каллар”, “Кўрпа” (юртимизнинг турли минтақалари) номли номланиши тушунарсиз

³⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 41-сон, 448-модда; 2017 й., 35-сон, 914-модда;



2-TOM, 10-SON

бўлган жой номларини санаб ўтиш мумкин. Қуйида ушбу ҳолатнинг келиб чиқиш сабаби ва ечими ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Биринчидан, “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуннинг 3-моддасига кўра, **географик объектлар** жумласига табиий объектлар (*дарёлар, кўллар, музликлар, текисликлар, тоғлар, тоғ тизмалари, горулар, чўллар, водийлар, даралар, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар, ёнбағирлар, фойдали қазилмалар конлари*) каби объектлар ҳам кириши ва 11-моддасига кўра, табиий объектларга ном бериш ҳамда уларнинг номларини ўзгартириш давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг таклифига кўра Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан амалга оширилиши кўрсатилган. Табиий объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш тўғрисидаги таклифларни кўриб чиқиш Республика комиссияси томонидан амалга оширилади. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси эса комиссиянинг хулосасини ҳисобга олган ҳолда, географик объектларга ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш масаласи юзасидан тегишли қарор қабул қилади.

Масаланинг эътиборли жиҳати шундаки, қонунда тепалик, дўнглик, жарликлар, кўприклар, сойлар, булоқлар, анҳорларга ном бериш тартиби кўрсатилмаган. Шу ўринда табиий савол туғилади. Мазкур объектлар ҳам табиий объектлар жумласига кирса уларга ном бериш тартиби қандай бўлади? Мазкур объектларнинг номланишида қонуннинг ўзида аниқ ечим бўлмаганлиги сабабли маҳаллий аҳоли уларни ўзлари истагандек номлаб келмоқда. Хусусан, “Ахгачи”, “Ҳарамжўй”, “Пат-пут”, “Ҳезалак”, “Чоғ”, “Сумак”, “Кўтирсой” (сойлар), “Лоло”, “Ғалча” (аҳоли пункти) ва “Наркоман” (дўнглик) сингари кўпол ва номи тушунарсиз бўлган географик объектларни номлаш ва номини ўзгартириш тартиби қонунда аниқ кўрсатилмаганлиги ва бу бўйича ҳуқуқий бўшлиқ бўлганлиги учун улар шундай номланиб келинган.

Агар ушбу объектлар қонуннинг 3-моддасида кўрсатилган табиий объектлар сирасига кирса уларга Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси даражасида ном берилиши мақсадга мувофиқ эмас, деб ҳисоблаймиз. Шунинг учун, тепалик, дўнглик, жарликлар, кўприклар, сойлар, булоқлар, анҳорларга ном беришда ягона ҳуқуқни кўллаш амалиётига эришиш учун Қонуннинг 3-моддасига табиий объектлар (*дарёлар, кўллар, музликлар, текисликлар, тоғлар, тоғ тизмалари, горулар, чўллар, водийлар, даралар, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар, ёнбағирлар, фойдали қазилмалар конлари*) деган сўзлардан кейин **кичик табиий объектлар** (*тепалик,*



2-TOM, 10-SON

дўнглик, жарликлар, кўприклар, сойлар, булоқлар, анҳорлар) жумласини киритиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шунингдек, қонуннинг 10-моддаси номини “Аҳоли пунктларининг таркибий қисмлари ва кичик табиий ҳудудлар (*тепалик, дўнглик, жарликлар, кўприклар, сойлар, булоқлар, анҳорлар*)га ном бериш ва уларнинг номларини ўзгартириш” деб номлаб, ушбу модда кўрсатилган нормаларни худди аҳоли пунктларининг таркибий қисмларига ном бериш тартиби сингари кичик табиий объектларга ном беришга ҳам татбиқ этиб, топонимист олимлар, мутахассислар кўмагида фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари, корхоналар, муассасалар, ташкилот-ларнинг илтимосномалари асосида туманлар, шаҳарлар ҳокимлари киритган таклифга кўра халқ депутатлари туманлар, шаҳарлар Кенгаши-лари томонидан амалга оширилиши таклиф этилади.

Иккинчидан, “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги қонунга юқоридаги ўзгартиш ва қўшимчаларни киритиш билан масаланинг ечими тўлиқ ҳал этилмайди. Чунки таклиф этилган ўзгартиш ва қўшимчалар қонунга киритиладиган бўлса, масаланинг ечими туман (шаҳар)да мавжуд бўлган географик объектларни номлаш ва қайта номлаш масалалари бўйича комиссия ихтиёрида қолади. Бироқ қонунда аҳоли пунктларининг таркибий қисмларига ном бериш тартиби бўлгани билан фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари, корхоналар, муассасалар, ташкилотлар туманлар, шаҳарлар ҳокимларига бирор бир объектга ном бериш ёки унинг номини ўзгартириш бўйича қанча вақтда таклиф киритиб бориши бўйича аниқ бир муддат белгиланмаган. Мазкур масаланинг ечими бўйича қуйидаги таклифни билдирамиз мумкин.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 20.01.2020 йилдаги 34-сонли Қарори билан тасдиқланган “Давлат бошқаруви органлари ва хўжалик бирлашмалари раҳбарлари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар, туман (шаҳар) ҳокимларининг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчиси фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисида”ги Низомга кўра, **маслаҳатчининг** асосий вазифаларидан бири сифатида географик ва бошқа топонимик объектлар, маданий мерос объектларига қонун ҳужжатларига мувофиқ ном берилиши борасидаги фаолиятни мониторинг қилиш ва бу борада аниқланган камчиликларни бартараф этиш юзасидан таклифлар киритиш ҳисобланади.

Шундан келиб чиққан ҳолда, “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуннинг 10-моддасининг 3-қисмига “туман, шаҳар ҳокими



2-TOM, 10-SON

фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари, корхоналар, муассасалар, ташкилотларнинг аҳоли пунктларининг таркибий қисмларига ва кичик табиий ҳудудларга ном бериш ҳамда уларнинг номларини ўзгартириш тўғрисидаги илтимосномаларини кўриб чиқади ҳамда уларни зарур ҳужжатлар билан бирга таклифлар тайёрлаш учун туман, шаҳар комиссиясига юборади. Бунда ҳужжатлар комиссияга киритилишидан олдин туман ҳокимининг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчисининг ижобий хулосаси олинishi шарт”лиги тўғрисидаги ўзгартириш киритиш таклиф этилади.

Шу билан бирга, маслаҳатчи томонидан ҳар йили камида бир марта *географик ва бошқа топонимик объектлар, маданий мерос объектларига қонун ҳужжатларига мувофиқ ном берилиши борасидаги фаолиятни мониторинги натижалари тўғрисида* Халқ депутатлари туман-шаҳар Кенгашларига ҳисобот бериши тартибини йўлга қўйиш лозим.

Бунинг натижаси ўлароқ, Кенгаш маслаҳатчисининг ҳисоботидан келиб чиқиб, ваколати доирасида маълум бир географик объектга ном бериш ёки номини ўзгаришга зарурати бор ёки йўқлиги тўғрисида қарор қабул қилиш имкониятига эга бўлади.

Хулоса ўрнида айтиш керакки, биз юртимиздаги географик объектларга ном танлашда уларни ўзи жойлашган ернинг тарихий-маданий хусусиятига мувофиқлиги ва мазкур ҳудудда истиқомат қилувчи аҳоли фикрларини ҳисобга олиб, шу тариқа ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш чораларини кўришимиз мақсадга мувофиқ бўлади.



2-TOM, 10-SON

**O'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK, IJTIMOYIY INTELLEKT VA
EMOTSIONAL INTELLEKTNING KORRELYATSION TAHLILI**

Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

University of Business and Science universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

[Tel:+998947472022](tel:+998947472022) mirzaodilf@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlarning psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt va sotsial intellekt darajalarining o'zaro bog'liqligi korrelyatsion tahlil orqali o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'smirlar davrida psixologik savodxonlikning ijtimoiy va sotsial intellektga ta'sirini aniqlash, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Psixologik savodxonlik, ijtimoiy va sotsial intellekt o'smirlarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasini yanada kuchaytiradi. Ushbu tadqiqot natijalari o'smirlarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. O'smirlar, psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt, emotsional intellekt, korrelyatsion tahlil.

Kirish. O'smirlar davri — shaxsiyat shakllanishi va ijtimoiy moslashuvning muhim bosqichi bo'lib, unda yoshlarda o'zini anglashi va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu jarayonda psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt va sotsial intellekt kabi qobiliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik savodxonlik insonning o'z emotsiyalari va xatti-harakatlarini boshqarish va boshqalarning emotsiyaviy holatini tushunish qobiliyatidir. Ijtimoiy intellekt ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish va samarali o'zaro muloqot qilishni anglatadi, sotsial intellekt esa ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish va unga moslashish qobiliyatidir.

Bugungi kunda o'smirlarda ijtimoiy va psixologik rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'plab muammolarni hal etishga xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqotda psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt va sotsial intellekt o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash orqali o'smirlarning shaxsiy rivojlanishidagi psixologik va ijtimoiy omillarning ahamiyati o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Psixologik Savodxonlik – Psixologik savodxonlikni aniqlash va o'smirlarning psixologik rivojlanishida uning o'rnini borasida Anisimova (2020) va Goleman (1995) tomonidan keltirilgan tadqiqotlarda qimmatli ma'lumotlar mavjud. Anisimovaning tadqiqoti yoshlar o'z emotsiyalarini boshqarish va tushunishda qanday omillarga e'tibor berishlarini yoritib beradi.



2-TOM, 10-SON

1. Ijtimoiy Intellekt – Goleman (2006) "Ijtimoiy intellekt" kitobida ijtimoiy intellektning asosiy komponentlarini, shuningdek, bu qobiliyat inson hayotida qanday muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. Goleman ijtimoiy intellekt orqali inson boshqalarning emotsiyalarini tushunishi va ularni to'g'ri boshqarishiga alohida urg'u beradi.

2. Sotsial Intellekt – Sotsial intellektning ijtimoiy muhitga moslashishdagi roli, xususan, ta'lim va professional faoliyatda o'zini qanday namoyon qilishi Hargreaves (2000) tadqiqotida bayon etilgan. U o'smirlar uchun sotsial intellektning ahamiyatini tahlil qiladi va ushbu qobiliyatning ta'lim tizimida qanday foydali ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama. O'smirlik davri shaxsiyat shakllanishi va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi uchun eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu bosqichda o'smirlar o'zlarining psixologik savodxonligi va ijtimoiy intellekt darajalarini oshirishda faol ishtirok etadilar. Tadqiqotning asosiy maqsadi psixologik savodxonlik va ijtimoiy intellekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdir. Bu esa o'smirlarning o'zaro muloqot qilish qobiliyatlari va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini yaxshilash uchun muhimdir.

Metodikasi. Tadqiqotda 300 nafar o'smir qatnashdi. O'smirlarning psixologik savodxonligi, ijtimoiy intellekt va sotsial intellekt darajalarini baholash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Psixologik Savodxonlik Testi – Anisimova tomonidan ishlab chiqilgan va o'smirlar uchun moslashtirilgan 30 savoldan iborat test.
2. Ijtimoiy Intellekt Testi – Goleman metodikasi asosida 25 savoldan iborat test.
3. Sotsial Intellekt Testi – Hargreaves tomonidan ishlab chiqilgan va o'smirlar uchun moslashtirilgan 20 savoldan iborat test.

Har bir respondent testlardan o'tkazildi va ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik o'rganildi. Tadqiqotda foydalanilgan usul regressiya va korrelyatsion tahlil bilan sinovdan o'tkazildi.

Tahlillar va Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Jadval 1: O'smirlar guruhlari bo'yicha olingan natijalar.

Guruh	Psixologik Savodxonlik (bal)	Ijtimoiy Intellekt (bal)	Sotsial Intellekt (bal)
Yuqori	85	90	88
O'rtacha	75	78	80
Past	65	70	68



2-TOM, 10-SON

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, psixologik savodxonlik va ijtimoiy intellekt o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.77$). Bu esa o'smirlarning psixologik savodxonlik darajasi oshgani sari ijtimoiy intellekt darajasi ham ortishini anglatadi. Psixologik savodxonlik va sotsial intellekt o'rtasida ham ijobiy korrelyatsiya ($r = 0.72$) aniqlangan.


Tahlillar:

1. **Psixologik savodxonlik:** Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi psixologik savodxonlik o'smirlarning ijtimoiy va sotsial intellektini rivojlantirishga yordam beradi. O'smirlar emotsiyalarini samarali boshqarish orqali o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi.

2. **Ijtimoiy intellekt:** Ijtimoiy intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar boshqalarning his-tuyg'ularini tushunib, ularga mos ravishda javob qaytarishadi. Bu esa ularning jamoaviy faoliyatlarda samarali ishtirok etishlariga yordam beradi.

3. **Sotsial intellekt:** Sotsial intellekt o'smirlarning ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini oshiradi. Yuqori sotsial intellektga ega bo'lgan o'smirlar muammolarni tez hal qilish va turli sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Korrelyatsion Bog'liqlik Grafikasi



1-rasm. Psixologik savodxonlik va ijtimoiy intellekt bog'liqligi

Rasmda psixologik savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan o'smirlarning ijtimoiy va sotsial intellekti ham yuqori ekanligi ko'rsatilgan.



2-TOM, 10-SON

Xulosa. Ushbu tadqiqot o'smirlar orasida psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt va emotsional intellekt o'rtasidagi korrelatsiyani ko'rsatdi. Psixologik savodxonlikni rivojlantirish, o'smirlarning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida psixologik bilimlarni oshirish va ijtimoiy intellektni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. O'smirlarning o'zaro munosabatlari va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish, ularning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik davridagi psixologik savodxonlik, ijtimoiy intellekt va sotsial intellekt o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali o'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini mustahkamlashga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish mumkin. Tadqiqot natijalari psixologik savodxonlikning yuqori darajasi ijtimoiy va sotsial intellektning rivojlanishi uchun muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois, ta'lim va tarbiya jarayonida psixologik savodxonlikni oshirish o'smirlarning jamiyatga moslashishiga yordam beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Anisimova, M. K. (2020). "O'smirlarda psixologik savodxonlik va ijtimoiy munosabatlar."
2. Goleman, D. (2006). "Ijtimoiy intellekt: Emotsiyalarni boshqarish va ijtimoiy aloqalar."
3. Hargreaves, L. J. (2000). "Sotsial intellekt va ta'lim."
4. Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 495-497.
5. Fayzullayev, M. . (2024). INTRODUCING PSYCHOLOGICAL LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, 3(22), 32–35.
6. Fayzullayev, M. (2023). O'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. *Академические исследования в современной науке*, 2(19), 129–133.
7. Fayzullayev, M. M. (2022). DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(4), 429–431.
8. Nortoji Jumaevich Eshnev, & Mirzaodil Mirzamurodovich Fayzullayev (2021). DISCRIMINATION IN EDUCATION. *Academic research in educational sciences*, 2 (CSPI conference 1), 550-553.



2-TOM, 10-SON

TALABALAR BILAN O'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA
INTERFAOL METODLARNING AFZALLIKLARI

Mirafzoon Noori,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti I-bosqich talabasi

Hazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, o'qituvchisi

Annotatsiya: Tibbiy ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini o'rganishda yangi uslubiy yondashuvlarni joriy etish va izlash bolajak mutaxassislarning sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik innovasion texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, talabalarda bilimga qiziqish va intilishlarni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: interfaol, trening, kommunikativ, aqliy hujum, liberalizatsiya qilish

Kirish. Zamonaviy ta'limni tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o'quvjarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda. Interfaol usullar birdaniga ko'pgina vazifalarni bajara olishga imkon beradi. Eng muhimi, interfaol usullar talabalarning kommunikativ bilimi, tushunchasini, ko'nikma va malakalarini oshiradi. Ularni hamkorlik, hamjixatlik, do'stona munosabatlarda ishlashini ta'minlaydi. Ayniqsa, bir-birlarini eshitish, fikrini bayon etish, o'zaro hurmatga undaydi.

Interfaol usullarda ishlash va o'sha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar ma'lum bo'lgan usullarni o'z o'quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Treninglar davomida mavjud bo'lgan yangi usullar muhokama qilinadi, o'rganiladi, ko'nikmalar hosil qilinadi. O'zlari shu asosida yangicha ishlash faoliyatini o'rganadilar.

Interfaol usul o'z ichiga "Kichik guruhlar bilan ishlash", "Baxs-munozara", "Guruhlararo bellashuv", "Aqliy hujum", "Tanqidiy fikrlash" kabi metodlarni qamrab oladi.

Talabalarning bilish faoliyati kichik gurublarda tashkil etish quyidagi bosqichlami o'z ichiga oladi:

- darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo'llarini belgilash;



2-TOM, 10-SON

- o'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishish;
- kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda maqsadni amalga oshirish yollarini loyihalash, mustaqil ishlashni tashkil etish;
- o'rganilayotgan obyektning avval o'rganilgan obyektlar bilan taqqoslash;
- natijalami loyihalash va uning maqsadga muvotirligini tekshirish;
- natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish.
- o'quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda guruhdagi har bir o'quvchi iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'quv muloqoti, bahsi, munozara, o'zaro yordamni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

“Bahs-munozara” usuli – biror mavzu bo'yicha talabalar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini talabalarning biriga topshirish yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

Shunday qilib, zamonaviy o'qitish metodlarini o'quv jarayoniga tadbiiq qilish talabalar tomonidan jamoada ishlash, ilmiy-izlanuvchilik ko'nikmalarini o'zlashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Ta'limda zamonaviy o'qitish metodlari kasb egalarini yetuk mutahassis qilib tayyorlash samaradorligini oshirishni takomillashtirishdir. Tez o'zgaruvchan, zamonaviy olamda barcha zamonaviy ilmiy-texnik yutuqlarni ushlab turish juda qiyin ekanligi hammaga ma'lum. Ammo bugungi kunda aytish mumkinki, barcha oquv dargohlari fan va texnologiyalarning eng ilg'or yutuqlariga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva “Tibbiy ta'limda interfaol usullardan foydalanish” *Международный научный журнал № 3 (100), часть 1*
2. Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna, Nazirova Arofatxon Maxmudjon qizi // *Creating an innovative educational environment in the educational process* // ijodkor o'qituvchi jurnali. 5 iyun / 2022 yil / 19 – son. 284-288 str.
3. Khazratkulova O.A. // *Theoretical and practical approaches to the linguistic concept in cognitology* // UDK:811.479 O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/9] ISSN 2181-7324 B.342-344



2-ТОМ, 10-СОН

МАФКУРА, МАФКУРАВИЙ ТАҲДИД ВА МАФКУРАВИЙ
ХАВФСИЗЛИКНИНГ ИЛМИЙ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Сардор Ашуров

Тадқиқотчи

Тошкент давлат шарқшунослик университети

Аннотация: Мазкур мақолада мафкура, мафкуравий таҳдид ва мафкуравий хавфсизлик тушунчаларининг илмий-назарий асослари таҳлил қилинади. Ушбу таҳдидлар жамиятнинг маънавий қадриятлари ва маданий асосларига зарар етказишга қаратилган бўлиб, глобаллашув жараёни, ахборот уруши ва сездирмай бошқариш назариялари асосида тушунтирилади. Мақолада мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш усуллари ва уларнинг жамиятга таъсирини камайтириш чора-тадбирлари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: мафкура, мафкуравий таҳдид, мафкуравий хавфсизлик, глобаллашув, ахборот уруши, сездирмай бошқариш.

Ушбу мавзунини ёритиш асносида унда келтирилган асосий тушунчаларга тўхталиб ўтиш лозим бўлади. Чунки бу тушунчалар борасида ўта турли туман қарашлар мавжуддир. Масалан, бир манбада: мафкура (араб. – фикрлар мажмуи) – муайян ижтимоий гуруҳ, қатлам, миллат, жамият, давлат манфаатлари, орзу-истак ва мақсад-муддаолари ифодаланган ғоявий-назарий қарашлар ва уларни амалга ошириш тизими. Унда манфаатлар ифодаланаётган куч ва қатламларнинг ўтмиши, бугунги куни ва истиқболи ўз ифодасини топади. Инсоният тарихида турли-туман мафкуралар бўлган. Турли халқлар ва ижтимоий кучларнинг ғоявий раҳнамолари, мутафаккир ва арбоблари, ўзларининг манфаат ва мақсадларидан келиб чиқиб, мафкуравий таълим ва дастурлар ишлаб чиққанлар. Мафкура муайян диний, фалсафий таълим асосида яратилади, маълум илмий қараш ва ахлоқий тамойилларга таянади. Мафкуралар ўз моҳияти ва таъсир кучига кўра, жамиятни бирлаштириши ёки уни бир-бирига қарама-қарши тарафларга бўлиб юбориши, давлатнинг жаҳондаги обрў ва мавқеини ошириши ёки тушириши, халқларни юксакликка кўтариши ёки таназзулга дучор этиши мумкин. Юксак мақсадлар, бунёдкор ғояларга асосланган мафкура ижтимоий - иқтисодий тараққиётга тurtки бўлади, маънавиятни юксалтиради, инсонларни улугвор ишларга сафарбар этади. Озодлик, эркинлик, мустақиллик, тинчлик, ҳамкорлик ғоялари асосида шаклланган,



2-TOM, 10-SON

эзгу мақсадларга хизмат қиладиган мафкура бунёдкорлик хусусиятига эга бўлади³⁸, деб кўрсатилган бўлса, бошқа бир манбада: “Мафкура — бу ижтимоий гуруҳлар, миллатлар, ёки давлатларнинг ғоявий кадриятлари, манфаатлари ва дунёқарашларининг йиғиндисидир. У жамиятдаги турли соҳаларни, жумладан сиёсат, иқтисодиёт, маданият ва маънавиятни йўналтиради. Мафкура жамиятда ягона тушунча ва мақсадларга эришиш учун аҳолини бирлаштиради, унинг фуқароларини бир йўналишда ҳаракат қилишга илҳомлантиради, тарзида таъриф берилган.

Мафкуравий таҳдид тушунчаси тушунчасига келганда ҳам шундай ҳолатга дуч келамиз.

«Таҳдид» - (арабча сўздан олинган бўлиб, хавф- хатар дегани) бу инсон ҳаётининг фаолияти, умуман, яшашни чигаллаштирувчи унинг ўз салоҳиятига таяниб асрлар давомида ўзи учун мақбул, шу билан бирга жамият барқарорлиги, хавфсизлигини асрашга қаратилган муҳофаза тизимига ҳамда маълум тарихий давр мобайнида барпо этилиб, аниқ мақсад сари йўналтирилган ижтимоий сиёсий тузилма, аниқроғи, давлатнинг сиёсий асосини заифлаштириши, кейинчалик эса, уни емирилишига олиб келувчи маҳаллий, ҳудудий, минтақавий ва ниҳоят, умумсайёравий салбий омилларнинг кириб келиши натижасида аниқ макон ва замонда юз берувчи ўта салбий нохуш, беқарор сиёсий ижтимоий тарихий вазиятдан иборатдир.³⁹

Бизнинг фикримизча, мафкуравий таҳдид жамият ёки давлатнинг мавжуд кадриятларига, дунёқарашига, маданиятига ёки ижтимоий тартибига хавф солувчи ташқи ёки ички таъсирларни англатади. Бу таҳдидлар жамиятни ёки давлатни нотўғри йўлга бошлаб, унинг ўзига хосликларини бузишга ҳаракат қилади. Бундай таҳдидлар жамиятнинг маънавий ва маданий асосларига зарба беради, унинг мустақил фикрлай олиш қобилиятини заифлаштиради.

Мафкуравий таҳдиднинг илмий-назарий асослари борасида сўз юритиладиган бўлса, булар жамият ёки давлат учун аҳамиятли бўлган тузилмаларни бузишга қаратилган бўлиб, уларнинг илмий-назарий асослари қуйидагиларга таянади:

1. Глобаллашув жараёни: Глобаллашув ва халқаро ахборот маконининг кенгайиши турли мафкураларнинг тарқалишига замин яратади. Бир мафкура бошқасини заифлаштириш ёки йўқ қилишга ҳаракат қилади.

2. Ахборот уруши назарияси: Ахборот уруши бу — давлатлар ёки ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ахборотни сездирмай сингдириш орқали мавжуд тартибни

³⁸ <https://staff.tiame.uz/storage/users/414/books/zhRjnoEYxpcxaj5h6g0mVRPi6ilvFxuuGaMocw5g.pdf>

³⁹ *Паматов Ж.С. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1*



2-TOM, 10-SON

Ўзгартириш ёки унинг кучини сусайтириш учун қаратилган ҳаракатлардан иборатдир. Ахборот урушида мафкуравий воситалар асосий ўрин тутди.

3. Мустамлакачиликдан қолган назария: Бу назарияга кўра, мафкуравий таҳдидлар кўпинча собиқ мустамлака давлатлар ёки кичик давлатларга нисбатан қўлланилади, уларнинг маданияти, тили ва қадриятларини бузиш учун ишлатилади.

4. Ижтимоий-маданий назария: Жамиятдаги мафкуравий тизимлар аҳолининг ўз ҳаётини қандай кўришига ва тушунишига таъсир қилади. Таҳдидлар ижтимоий маданий унсурларни ўзгартириш, уларни бир хиллаштириш ёки йўқ қилиш орқали келиб чиқади.

5. Сездирмай бошқариш (Манипуляция) назарияси: Жамиятнинг ахборот маконида турли йўналтирилган хабарлар ва маълумотлар тарқатилиб, аҳолининг фикрини сездирмай бошқариш орқали мафкуравий таҳдидлар пайдо бўлади. Бунда оммавий ахборот воситалари катта аҳамият касб этади.

Мафкуравий таҳдидлар асосан жамиятнинг маънавий, маданий ва ахборот хавфсизлигига зарар етказишга қаратилган бўлади. Бу назарий асослар мафкуравий таҳдидларни тушуниш ва уларни бартараф этиш йўллари излаш учун муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Пахруддинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдиди. Тошкент: 2001, 178-б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил, 28 декабрь.

3. Раматов Ж. С. & М. Н. Ҳасанов (2022). Абу Наср Форобийнинг жаҳон илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссаси ва унинг бугунги кундаги аҳамияти. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.

4. Ҳасанов М.Н. (2022). Янги Ўзбекистон тараққиёти босқичида ёшларнинг маънавий ва маданиятини юксалтиришнинг устивор вазифалари. Academic research in educational sciences, 3 (6), 791-798.



2-ТОМ, 10-СОН

ҚОРИН БЎШЛИҒИ АЪЗОЛАРИДА ХАВФЛИ ЖОЙЛАШГАН ВА
АСОРАТЛАНГАН ЭХИНОККОЗ КИСТАЛАРНИ ДАВОЛАШДАГИ
МУАММОЛАРИ

Худайкулов.Б.К., Аминкулов.Ш.У., Эшонкулов.К.Ш.

*Термиз иқтисодиёт ва сервис университети ва РШТЁИМ Сурхондарё
филиали*

Мақсад: Қорин бўлигида мураккаб жойлашган эхинококкоз операцияларда қолган бўшлиқни дренажлашнинг роли жуда муҳим бўлиб операциядан кейинги беморларнинг соғайишида муҳим ўрин тутади ёки қайта операция бўлишига олиб келади.

Материал ва усули: Қорин бўшлиғида мураккаб жойлашган эхинококкозларнинг хирургик даволанишига асосланган операция усули бўлиб, беморлар ёши 20-55 ёшгача бўлган беморлар, эркаклар-218, аёллар-193 ташкил этди.

Эхинококкознинг диафрагма остида жойлашуви, жигарда, толоқда ва қорин бўшлиғида-364 беморда учради, жигар ўт йўллариغا ёрилиши билан-16 бемор, механик сариклик ва холангит-9. Эхинокок кистасининг қорин бўшлиғига ёрилиши билан, анафлактик шок берган беморлар-3, аллергия ҳолатлар билан-2 беморни ташкил қилди.

Эхинокок кистасининг бир халтали ҳолати билан-189, кўп халтали-2-3-дан 10-11-тагача кўп камерали ҳолатлари билан-222 беморларда операция ўтказилди.

Эхинокок кистаси энг мураккаб жойлашган сохаларидан қорин бўлиғи аорта устки сохаси-26, жигар диафрагма ости-7-8 сегментлардан диафрагмага туташган ҳолати-187, диафрагма, жигар орқа юзаси ва ўпка пастки сохаси билан қамралган гигант эхинокок кистаси-32, жигар ўт йули ва умумий ўт йўлга оқма ҳосил қилиш билан-25, қолган ҳолатлари қорин бўшлиғида--, ичак тутамларига ёпишган кичик тоз ва сийдик қопи уст қисмида жойлашган, жигар ости сохасида чап ва ўнг бўлақларида ташқи жойлашувлари билан жами-141 беморларни ташкил этди.

Натижалар: Барча беморлар тўлиқ зарурий текширувлардан ўтказилган ҳолда операцияга тайёрланиб операция ўтказилди шулардан эхинококкоз кистаси қайталаниши- 12 бемор кузатилди, эхинококкоз бўшлиғини йиринглаш эвазига ва тикиш иложсиз вазиятларда дренажлаш-19, сафро оқмасини бартараф қилиш ва бўшлиқни дренажлаш -23. қолган ҳолатларда идеал эхинококэктомияси-205, қисман эхинококкоз халтасини резекцияси ва бўшлиқни тўлиқ бартараф қилиб қорин



2-TOM, 10-SON

бўшлиғини дренажлаш-90.қолган ҳолатларда капитанаж усулларида қисман қўллаш билан бирга тўлиқ бартараф этилмаган бўшлиққа дренаж найча ўрнатилди. Турли шифахоналарда ўтказилган эхинокок операцияларининг асоратларидан перитонит берганлар(бўшлиқдан суюқлик қорин бўшлиғига тушиши билан, сафроли окма ҳолатларидан дренажнинг чиқиб кетиши, тўлиқ ишламасдан қорин бўшлиғи ифлосланиши)каби ҳолатлар билан-74 беморлар қайта релопоратомия ўтказилиб дренажлаш ёки бўликни бартараф қилиш, ҳамда сафроли окмани бартараф қилиш ва қайта дренажлаш операциялари ўтказилди. шулардан дренаж найча 1-ойдан 3—4 ойгача бўшлиқда турган беморларни ташкил қилди.

Хулоса: Шундай қилиб Эхинококкоз кисталарининг мураккаб жойлашувида ўтказиладиган операциялар ва дренаж қўйишни тўғри танлаш, ҳамда бўликни бартараф қилишда билим тажриба ва маҳорат талаб талаб қилинади, бундай ҳолатларни англамаслик эса беорни кўп қайта операция бўлишига ҳамда ногиронлик келтириб чиқаришга сабаб бўлади.



«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR» NOMLI
KONFERENSIYANING 2-TOM, 10-SON (Oktabr)
MUNDARIJA

1	<u>OBTAINING OF OLIGOMERIC CORROSION INHIBITORS BASED ON POLYCAPROLACTAM WITH MELAMINE ADDUCT (PUM-1)</u> Abror Nomozov	6-10
2	<u>TURKISTON IQTISODIY HAYOTIDA MUSULMON AYOLLARNING ISHTIROKI.</u> Yulduzxon Umarova	11-15
3	<u>USE OF GRAPHIC NOVELS IN LANGUAGE EDUCATION</u> Muslimakhon Nematullaeva	16-19
4	<u>TARMOQLARARO KLASTERLAR SAMARADORLIGINI VAHOLASH USLUBIYATI</u> Zulayho Sharipova	20-24
5	<u>МЯГКАЯ СИЛА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ДИПЛОМАТИИ: РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИМИДЖА ГОСУДАРСТВА.</u> Ансор Матекубов	28-28
6	<u>SAMURAYLARNING INQIROZI VA ZAMONAVIY ARMIYA TASHKIL ETILISHI</u> Rustam Mamajonov	29-31
7	<u>SYNTHESIS OF CORROSION INHIBITOR FOR IN 0.5 M HYDROCHLORIC ACID MEDIUM.</u> Zafar Misirov	32-35
8	<u>ЖИНОЯТНИНГ САБАБЛАРИНИ ВА УНИНГ СОДИР ЭТИЛИШИГА ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАРНИ БАРТАРАФ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ</u> Файзиев Дилшод Наджимович	36-49
9	<u>PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA YUQORI SINF O'QUVCHILARINING NUTQ KO'NIKMALARINI VAHOLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI.</u> Xusanova Xilola Xaqberdiyevna	50-52
10	<u>The Role of the Translator in Shaping National Identity: A Study of Early 20th Century Translations in Central Asia.</u> Azimova Laylo Faxriddin qizi	53-57
11	<u>IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI PROGNOZLASHDA PROGNOZLASH USULLARI.</u> Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	58-62
12	<u>МАККАЖО'ХОРИНИНГ ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТИ ВА ТАВОБАТДАГИ АҲАМИЯТИ.</u> Abdullayeva I.B, Ro'ziyeva G.T	63-65
13	<u>ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН ХОМ АШЁ СИФАТИДАГИ ГИПСЛИ ЖИНСЛАРНИНГ ТАРКИБИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ</u> О.А.Тошмаматов	66-70





14	РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА Абдурасулова Нилуфар Абдусалим кизи	71-75
15	ROZMARIN TAVOATDA FOYDALARI VA XUSIYATLARI VA FOYDALANISH USULLARI. <i>Shodiqulova G. B., Ro'ziyeva G.T.</i>	76-79
16	ВЛИЯНИЕ ВОЛОКНИСТОГО СОСТАВА НА ИСТИРАНИЕ ТРИКОТАЖНЫХ ПОЛОТЕН. З.Ф.Валиева, О.В.Прозорова	80-88
17	IRSIY KASALLIKLAR VA ULARNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. Abdullayeva I.B , Ro'ziyeva G.T	89-97
18	QADIMGI SHARQDA JAMIYAT HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLAR. Rakhmatjon Akhmedov	98-99
19	ИНКЛЮЗИВ МУХИТ ЯРАТИШ: ОЛИЙ ТАЪЛИМ БОШҚАРУВИ ТАЙЁРЛОВИДА ХИЛМА-ХИЛЛИКНИНГ РОЛИ. Муроджан Аллабергенов	100-102
20	ZARDUSHTIYLIK DINING O'RTA OSIYODA TUTGAN O'RNINI VA ROLI. Zulqaynarov Sarvar Alisherovich	103-109
21	EKOLOGIK JARAYONLARNING PARABOLIK MODELLARI Qudratov Almardon Nurmatov og'li	110-113
22	TECHNOLOGY AND AUTOMATION IN MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Umarova Zevi Odilovna, Kurbonov Bekzhon	114-117
23	RECURRENT NEURAL NETWORK (RNN) AND LONG SHORT-TERM MEMORY (LSTM) MODELS FOR MOTION DETECTION IN VIDEO IMAGES Muminov Islom Bahodir o'g'li	188-122
24	QORAQALPOG'ISTONNING ALOHIDA HUDUD SIFATIDA O'RGANILISHI (XX ASR 20-30 YILLAR). Sohiba Boysariyeva	123-128
25	KO'P TILLILIKNING AFZALLIKLARI: MADANIY VA INTELLEKTUAL O'SISH. <i>Ergasheva Malohat Yo'ldosh qizi</i>	129-132
26	JISMONIY TARBIYADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Barakayev Bahodir O'roqovich	133-138
27	Применение активированного угля в процессе удаления соединений серы из авиационного керосина Бухарского нефтеперерабатывающего завода. Буриев Насирдина	139-140
28	QO'ZG'ALUVCHI TO'QIMALARNING UMUMIY FIZIOLOGIYASI. Ergasheva Marjona Umidillo qizi	141-143
29	BENZOLNING ISHLATILISHI. Mukimova Dinara Ulugbekovna	144-147
30	O'RIK DARAXTINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI	148-152



	Abdullayeva I.B, Ro'ziyeva G.T	
31	ISSIQLIK TARMOG'IDAGI YO'QOTILADIGAN ISSIQLIKNING IZOLYATSIYASI QILINGAN TURLI XIL QUVURLARDA TAHLIL QILISH. Maqsudov Rustamjon Ismoilovich, Sodiqov Mirzoxid Ulug'bek o'g'li	153-156
32	ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTIDA FOLKLORIZMNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Yakubova Shaxlo Avazxonovna	157-161
33	ПАСТ ЗИЧЛИКДАГИ ПОЛИЭТИЛЕННИНГ (ПЗП) ФИЗИК-МЕХАНИК ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ <i>Турдимуродов Отабек Бахтиёр ўгли, Назаров Юсуф Эшқобилович, Усанова Фарзона Бекназар Кизи Шарифова Лола Баходировна</i>	162-164
34	UY XO'JALIKLARNI DAROMADLARINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIK O'RNI. Hamidov Diyorbek Jo'ra o'g'li	165-167
35	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ. Obloqulova Shodiya	168-174
36	JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARINING O'RNI. Uteshov Askarali Ismetullayevich	175-178
37	KRIPTOVALYUTALARNING HUQUQIY MAQOMI VA DAVLAT NAZORATI. Shahnoza Muzrapova, Shahobiddin Panjiyev	179-181
38	АНАЛИЗ ПРИЧИН ВЫСОКОЙ СМЕРТНОСТИ У БОЛЬНЫХ С СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ ПАТОЛОГИЕЙ, ПОДВЕРГШИХСЯ АБДОМИНАЛЬНЫМ ХИРУРГИЧЕСКИМ ВМЕШАТЕЛЬСТВАМ НА ФОНЕ ПОВЫШЕННОГО ВНУТРИБРЮШНОГО ДАВЛЕНИЯ <i>Азизова Ф.Ф., Мухамедова М.Г.</i>	182-184
39	XALQARO MUNOSABATLAR SOHASIDAGI TERMINOLOGIYA TADQIQINGING AHAMIYATI <i>Xudoykulova Zamira Babakulovna</i>	185-188
40	The analysis of similarities and differences of English and Uzbek proverbs with proper names in linguocultural field. Turayeva Gulshan Meiliyevna, Turaeva Umida Shukhratovna	189-193
41	СВОЙСТВА НОВЫХ ТКАНЕЙ <i>Паттахова Д. А., Узаква У. Р.</i>	194-201
42	ОСОБЕННОСТИ ИЗМЕНЕНИЙ ДИНАМИКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КЛЕТОЧНОГО ИММУНИТЕТА ПРИ ПОВРЕЖДЕНИИ ПОЧЕК, У БОЛЬНЫХ ПЕРЕНЕСШИХ	202-219



	SARS-COV2. Хурсандов Илѐс Ахмедович, Хамдамов Бахтиѐр Зарифович	
43	О‘ЗБЕКISTONDA OZIQ-OVQAT SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI. Xursanov Sherzod Ulaboyevich	220-222
44	KASBIY TA'LIMDA YOSHLARNI TO'G'RI KASB-HUNAR TANLASHGA YO'NALTIRISH VA HAYOTDA O'Z O'RNINI TOPISHIGA KO'MAKLASHISH Matrazov Kuranmurat Salayevich,	223-226
45	ГЕОГРАФИК ОБЪЕКТЛАРНИНГ НОМЛАНИШИДА ДАВЛАТ ТИЛИ МЕЪЁРЛАРИГА АМАЛ ҚИЛИНИШИ МАСАЛАЛАРИ .Сирожиддин Курбонбоевич Сапарбаев	227-230
46	O'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK, IJTIMOY INTELLEKT VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING KORRELYATSION TAHLILI Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich	231-234
47	ГАЛАБАЛАР БИЛАН О'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNING AFZALLIKLARI Mirafzoon Noori, Hazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna	235-236
48	МАФКУРА, МАФКУРАВИЙ ТАХДИД ВА МАФКУРАВИЙ ХАВФСИЗЛИКНИНГ ИЛМИЙ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ Сардор Ашуров	237-239
49	ҚОРИН БЎШЛИҒИ АЪЗОЛАРИДА ХАВФЛИ ЖОЙЛАШГАН ВА АСОРАТЛАНГАН ЭХИНОККОЗ КИСТАЛАРНИ ДАВОЛАШДАГИ МУАММОЛАРИ. Худайкулов.Б.К., Аминкулов.Ш.У., Эшонкулов.К.Ш.	240-241

